

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТУ ★ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Uchinchi renessans

RAHBAR VA YOSHLAR

Shijoat, birdamlik, bukilmas
iroda, ilm-fan va sportga bo'lgan
mehr-muhabbat – Yangi O'zbekiston
yoshlarining har biriga xos xususiyat.
Prezidentimizning yoshlar siyosatiga
qaratayotgan doimiy e'tibori va ertangi kun
egalariga bildirilayotgan yuksak ishonch
esa ularga qanot baxsh etib, yanada yuksak
marralarni ko'zlashga o'rgatmoqda.

2



QISHIN-YOZIN MAFTUNKOR QISHLOQ



Farg'ona viloyati

«O'zbekistonning
Shveysariyasi» deya
ta'rif beriladigan,
purviqor tog'lar bag'rida
joylashgan Shohimardon
qishlog'i haqida ortiqcha
ta'rifga mutlaqo hojat
yo'q. Mazkur maskan azal-
azaldan o'zining betakror
tabiati, shifobaxsh suvi
va toza havosi bilan yetti
iqlimga mashhur bo'lgan.
Yurtdoshlarimiz orasida
bu go'shaga umrida
bir marta bo'lsa ham,
borganlari yoki borishni
niyat qilganlari juda ko'p.

(Davomi 6-betda.)



Uchinchi renessans

RAHBAR VA YOSHLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Aynan shunday yigit-qizlar bilan ochiq muloqot o'tkazish maqsadida Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida vazir general-leytenant Aziz Tashpulatovning tizimdagi yosh xodimlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Ichki ishlar vaziri yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, iqtidorli, salohiyatli yosh kadrlarni tanlab olish, ularning o'quv karyera tizimi orqali rivojlantirish va faoliyat yuritayotgan sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishlari uchun mavjud imkoniyatlar haqida to'xtalib o'tdi. Bu yo'nalishda, birinchi navbatda, davlat rahbarining yoshlar siyosatiga bo'lgan e'tibori va mas'ullar oldiga belgilab bergan vazifalari dasturilamal bo'layotganligi e'tirof etildi.

Shuningdek, uchrashuvda bilim-tafakkuri, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati yuksak

va axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan xodimlarga talab ortib borayotganligini ta'kidlandi. Chindan ham, aynan shunday yosh kadrlar mamlakatimizning ertangi rivojini, barqaror osoyishtalikni ta'minlashda asosiy kuchga aylanadi.

Tadbirning ikkinchi qismi – yosh xodimlar tomonidan tayyorlangan taqdimot bilan davom etdi. So'ngra ochiq muloqot orqali ishtirokchilar to'g'ridan-to'g'ri vazirga o'z savollari va takliflarini bildirishdi.

Muloqotda konferens-aloqa orqali ishtirok etgan quyi tizimdagi ichki ishlar bo'limlarida xizmat qilayotgan yosh yigit-qizlarning tashabbuslari va takliflari yuzasidan bir qator ijobiy loyihalar yo'lga qo'yilishi belgilandi. Xodimlarning sport va ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishlari uchun sharoit yaratish bo'yicha hududiy boshqarma boshliqlariga topshiriqlar berildi.

O'z xizmat faoliyati davomida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qo'shayotgan yuksak hissi hamda turli yo'nalishlarda erishayotgan samarali natijalari uchun bir guruh xodimlar Ichki ishlar vaziri tomonidan taqdirlandi.

Uchrashuv davomida bildirilgan takliflar va savollar, ochiq muloqot jarayonida muhokama qilingan masalalardan kelib chiqib, Ichki ishlar vaziri tomonidan mas'ullarga bir qator vazifalar belgilab berildi.

Bir so'z bilan aytganda, har bir yosh xodim ushbu uchrashuvdan o'ziga katta taassurot oldi va ichki ishlar organlarining kelajagi, Vatanning tinchligi zimmasidagi ulkan mas'uliyat ekanligini his etdi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi

Nukus shahrida bo'lib o'tgan ochiq muloqot davomida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi Amanbay Orinbayev bugun jamiyatda o'z so'zi va o'rniga ega bo'lishga intilayotgan, probatsiya hisobidagi hamda ichki ishlar organlari rahbarlariga birlashtirilgan uyushmagan yoshlarning muammolarini atroflicha tinglab, ularning takliflarini muhokama qilishdi.

Uchrashuvda 400 nafarga yaqin yoshlar ishtirok etib, o'z murojaatlarini to'g'ridan-to'g'ri vazirlik va idoralarning rahbarlariga yo'llash imkoniyatiga ega bo'lishdi. Tadbiyorlikni yo'lga qo'yish, chet tillari, axborot texnologiyalari va boshqa zamonaviy kasblarni o'rganish, ishga joylashish kabi masalalar yuzasidan yo'llangan murojaatlarning 38 tasi shu yerning o'zida hal etildi, 26 ta murojaat yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berilib, ularning ijrosi nazoratga olindi.

Tadbirda yoshlar orasida iqtidorlarni kashf etish, ularni sport, ta'lim,

hunarmandchilik va kichik biznesga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash, o'z kelajagini qurishga bugundan ko'maklashish zarurligi ta'kidlandi. Yoshlar jinoyatchiligi ko'p kuzatilyotgan hududlar va ta'lim muassasalari bilan alohida ish olib borish bo'yicha vazifalar belgilab olindi.

Voyaga yetmaganlar, o'quvchi va talabalarning jinoyat ko'chasiga kirib qolishining oldini olish bo'yicha tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish, ayniqsa, maktablarga birlashtirilgan inspektor psixologlar ta'lim muassasalaridagi turli xavflarga, yoshlar xarakteridagi o'zgarishlarga tezda



munosabat bildirib, ular bilan yakka tartibda shug'ullanishi bo'yicha vazifalar belgilandi.

Uchrashuv so'ngida fan, ta'lim, sport va madaniyat sohalarida tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan

23 nafar iqtidorli yoshlar taqdirlandi. Shuningdek 16 nafar tadbirkorlikni yo'lga qo'yish, hunarmandchilik bilan shug'ullanish istagidagi ishtirokchilarga zaruriy jihozlar va texnik qurilmalar topshirildi.

O'z muxbirimiz.



YANGI O'ZBEKISTON – YANGICHA TIZIM

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan davlat va jamiyat xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid qilayotgan uyushgan jinoyatchilik, narkojinoyatlar, kiberjinoyatlar va yashirin iqtisodiyot bo'yicha ta'sirchan choralarni belgilash yuzasidan videoselektor yig'ilishida yangicha tizimni yo'lga qo'yishni Chilonzor tumani misolida tushuntirib berdi.



Xususan, o'tgan yili tumanda oldini olish mumkin bo'lgan 1 ming 407 ta jinoyat sodir etilgan. Ularning 40 foizi mahalla hududida bo'lgan. Yoki o'g'rilik, talonchilik, tan jarohati, bezorilik kabi jinoyatlar asosan tungi vaqtda sodir etilmoqda.

Shu bois, jamoat xavfsizligi kuch-vositalarini boshqarish yangicha tashkil qilinadi.

Patrul-post, yo'l-patrul, qo'riqlash va profilaktika xizmatlari tun-u kun 3 smenali xizmat rejimiga o'tadi hamda 70 foizi soat 17 dan tungi 3 gacha patrullik qiladi. Patrul guruhlarini huquqbuzarlik to'g'risida xabar kelib tushganda,

voqea joyiga 5 daqiqa ichida yetib keladigan tizim bo'ladi.

Tumandagi 5 ta ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosarlari tungi xizmatni bevosita mahallalarda tashkil qiladi. Ular tungi vaqtda o'z boshliqlariga berilgan barcha vakolatga ega bo'ladi, mustaqil qaror qabul qiladi va mas'uliyatni ham to'liq zimmasiga oladi.

Bundan buyon tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'ining jamoat tartibini saqlash bo'yicha o'rinbosari va 5 ta ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosarlari boshqa ishlarga umuman jalb qilinmaydi. Ularning faoliyati faqat vazirning buyrug'i bilan tartibga solinadi.



Shuningdek, Ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlariga tungi xizmatining har soatiga bazaviy hisoblashning 5 foizi miqdorida kompensatsiya to'lanishi belgilandi.

Aholining huquqlarini ta'minlash va qulay sharoit yaratish maqsadida sudlar, advokatura, sud-tibbiy ekspertizaning ham markazlashgan tungi navbatchiligini tashkil etish bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish topshirildi.

Ilg'or tajriba asosida aholi gavjum joylarda dron yordamida patrullik kuzatuvini yo'lga qo'yiladi.

Chilonzor tumani ichki ishlar xodimlari sohasi va hududidan qat'i nazar, fuqaro murojaatini qabul qiladi, ko'chada formali xodimga qilingan murojaat «102»ga xabar bergan bilan teng bo'ladi.

Tumandagi barcha 55 ta mahalladagi profilaktika inspektorining xizmat xonasi eshigi u bilan tezkor bog'lanish uchun aloqa tugmasi bilan jihozlanadi. Ya'ni, profilaktika inspektori qayerda bo'lmasin, aholi uni qo'l telefoni va planshetiga tun-u kun bog'lanishi mumkin bo'ladi.

Profilaktika inspektori uchun zamonaviy, xalqqa yoqadigan ko'rinishda formani tayyorlash topshirildi. Inspektorlarning ishi raqamlashtiriladi, «ovozli tushuntirish xati» olish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, tuman ichki ishlar tergov bo'limida materiallarni ko'rib chiqadigan tergovga qadar tekshiruv guruhlarini tuziladi.

Bundan buyon profilaktika inspektoriga KPI qo'yishda protokol tuzish mezon bo'lmaydi.

«Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonun ham juda deklarativ yozilgani, haqiqiy holat asosida amalda ishlaydigan yangi qonun loyihasini ishlab chiqish, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksni ham profilaktikaga yo'naltirgan va ta'sirchanligini oshirgan holda yangilash muhimligi ta'kidlandi.

Joriy yil 1-iyuldan poytaxtdagi profilaktika xodimlariga aynan shu sohada ko'p yillik staji uchun 5 million so'mgacha oylik ustama beriladi.

1-fevraldan yuridik oliygohni bitirib, ichki ishlar tizimiga ishga kirganlarga oliygohda o'qigan davri ham stajga qo'shiladi.

Viloyatdan kelib, poytaxt ichki ishlar idoralarida ishlayotgan xodimlarning uy ijarasiga oylik to'lov 1,8 million so'mdan 3,1 million so'mga oshiriladi.

1-fevraldan ichki ishlar xodimlari uchun qurilayotgan uylarning 30 foizi faqat profilaktika inspektorlariga beriladi.

Yuksak mukofot sohiblari

«QANCHA SHONING BO'LSA VATANNI KO'TAR...»

2025-yil 21-noyabr. Tungi soat 23.00. Shahar ko'chalarida hayot so-kinlashgan payt. Ammo bu vaqt yo'l xavfsizligi-ni ta'minlash, ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish maqsadida xizmat qilayotgan xodimlar uchun mas'uliyatning eng og'ir palla-si. Ana shunday vazifani bajarayotgan katta serjant Vahobjon Mo'minov inspektorlar talabiga bo'y-sunmay, yuqori tezlikda harakatlanib kelayotgan avtomashinani to'xta-tish uchun ishora bergan vaqtda haydovchi tezlikni pasaytirib, to'xtash o'r-niga, xodimning hayotini avtomashina g'ildiraklari ostida qoldirdi.



Xizmatdan so'ng oilasi bilan dam olish uchun turli reja va niyatlar qilgan Vahobjon, afsuski, shifoxonaga yetib bormay joni uzildi. Bir yo'l qotili sababli orzular armonga aylandi.

Ota-onaning tirgagi, farzandlari-ni mehribon otasi, ayolining suyan-chi bo'lgan insonni yo'qotish dardi og'ir. Endigina 42 yoshni qarshilagan Vahobjonning vafoti hamkasblarini ham chuqur qayg'uda qoldirdi.

Uning otasi Abduvali Mo'minov ham IIB tizimida ishlab, jamoat

tartibini saqlashga o'z hissasini qo'shgan. Bu muhit, shubhasiz, Vahobjonning shu yo'nalishga qadam qo'yishiga ta'sir qilgan. Qolaversa, akasi Vohidjon va ukasi Jasurbek ham IIB xodimi bo'lishdi.

– Men doim yurt osoyishtaligi, xalqimiz tinchligi yo'lida xizmat qilishni sharaflab deb bilganman va bundan cheksiz faxr tuyganman, – deydi Vahobjonning otasi A. Mo'minov. – Uch nafar farzandim shu sohani tanlaganidan, ularning o'z burchiga

sadoqati, jasorati va fidoyiligi davlatimiz rahbari tomonidan e'tirof etilayotganidan faxrlanaman.

Harbiy xizmatdan so'ng IIV Akademiyasi Serjantlar tarkibi-ni tayyorlash oliy kurslarida o'qigan Vahobjonning xizmat faoliyati har bir qadamda, har bir vazifada fidoyilik, qat'iyat va mas'uliyatga asoslangan edi. 2008-yildan boshlab, Namangan viloyati IIB Jamo-at xavfsizligi xizmatida ishlay boshladi. Uning xizmat davomida qo'lga kiritgan natijalari, jamoat xavfsizligiga qo'shgan his-sasi, mas'uliyati har bir inson uchun namuna bo'ladi.

Shu o'rinda Halima Xudoyberdiyevaning «Qancha qoning bo'lsa Vatan uchun to'k, Qancha shoning bo'lsa Vatanni ko'tar», degan misra-lari xayolga keladi. Darhaqiqat, ichki ishlar organlarida Vatan uchun sadoqat bilan xizmat qilishga qasamyod qilgan bu xodim qasamyodiga sodiq qoldi. So'nggi nafasini ham yurt tinchligi, xalq osoyishtaligi, yo'llar xavfsizligi uchun fido qildi.

Joriy yil Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga muvofiq, katta serjant Vahobjon Mo'minov xizmat burchiga sadoqati,



jasorati va fidoyiligi uchun «Jasorat» medali bilan taqdirlandi.

Vatan bunday farzandlarini unutmaydi. Yo'l xavfsizligi uchun jonini tikkan Vahobjon Mo'minov nomi hamisha barhayot. Unutilmas qahramonning shonli xizmati, pok xotirasi yuraklarda mangu yashaydi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

G'urur

OTAM – HAYOT MAKTABIM

Har tong yangi kunni tinchlik-xotirjamlikda qarshi olarkanman, yurtimizda hukm surayotgan osudalik uchun shukrona keltiraman. Zero, bu oldimga qo'ygan ulkan maqsad-larimga yetishishim uchun yaratilgan katta imkoniyatdir. Ana shu baxtli onlarning tuhfa etilishida otamning ham munosib hissasi bor-ligi menga alohida iftixor bag'ishlaydi.

Otam, podpolkovnik Hamidullo Hayitboyev ayni paytda Izboskan tumanidagi «Shinam» mahalla fuqarolar yig'inida profilaktika katta inspektori lavozimida faoliyat olib bormoqda. U mas'ul bo'lgan hududda 3161 nafar aholi istiqomat qiladi. Mahallada 748 ta xonadon, 1007 ta oila mavjud. Bu raqamlar xizmat jarayonida deyarli har kuni tilga olingani sababli menga yod bo'lib ketgan. Otam esa ushbu ko'rsatkichlar ortida qanchadan-qancha oilalar tinchligi, inson taqdiri va bolalar kelajagi mujassam ekanini har kuni chuqur his etgan holda ish tutadi.

U mahalladagi ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonida ham faol ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, o'tgan yili 37 nafar ishsiz fuqaroni ishga joylashtirishga, 13 nafar aholiga kredit olishda amaliy yordam berdi.

– Har bir profilaktika inspektorining xalq orasi-da bo'lishi, odamlar bilan bevosita muloqot qilishi huquqbuzarliklarning oldi olinishida muhim omil hisoblanadi, – deydi otam bizga har doim. – Ana



shu tamoyil asosida oilaviy kelishmovchiliklarni bartaraf etish, aholini ehtimoliy xavf-xatarlardan ogohlantirish, yoshlarni sog'lom turmush tarziga, tinchlik va osoyishtalikka chorlashga alohida e'ti-bor qaratilmoqda.

Otam ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 1996-yilda Andijon tumani IIBda uchastka noziri lavozimida boshlagan. Unga qadar Toshkent o'rta maxsus militsiya maktabida tahsil olgan. Shu yilning o'zida Izboskan tumani IIBning voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'limida nozir sifatida xizmat qila boshlagan. Keyingi yillarda asosan hududlarda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash yo'lida samarali xizmat qildi. 2022-yilda «Ichki ishlar organlaridagi benuqson xizmati uchun» ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi xizmatlarining munosib e'tirofi bo'ldi.

Bugun padari buzrukvorim to'rt nafar farzand-ni mehribon otasi, besh nafar nabiraning e'zozli bobosidir. Uning hayot yo'li men uchun haqiqiy maktab vazifasini o'tamoqda. Kelgusida Vatanga sidqidildan xizmat qiladigan, shaxsiy manfaatdan ko'ra jamiyat manfaatini ustun qo'yadigan inson bo'lishni o'z oldimga maqsad qilib qo'yganman. Chunki el-yurt tinchligi uchun halol xizmat qilish eng ulug' baxt va sharaflar ekanini ana shu hayot namunasi orqali anglab yetdim.

Quvonchbek MIRABDULLAYEV,
Andijon davlat universiteti talabasi.

Yangi O'zbekiston bunyodkorlari

MUVAFFAQIYAT YOSHGA EMAS, BILIMGA BOG'LIQ

Andijon viloyati IIB EKM katta eksperti, katta leytenant Dilbarxon Umarova o'zida chuqur bilim, tahlil qilish qobiliyati, sabr va mas'uliyat kabi sifatlarni mujassam etgan xodimlardan.

Lavhamiz qahramoni IIV Akademiyasida ustozlari – podpolkovniklar Sadoqatxon Nurimbetova, Furqat Sobirov hamda Anvarjon Husanovlardan saboq olib, kasbiy ko'nikmaga ega bo'ldi. 2022-yilda Andijon viloyati IIB EKMda ilk xizmat faoliyatini boshlab, nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi farqni chuqur his qilgan holda, ularni muvaffaqiyatning qo'sh qanotiga aylantira oldi.

– Tabiiyki, o'qish bilan xizmat orasida katta farq bor, – deydi u. – Akademiyada asosan nazariy bilim oldim, xizmatda esa o'sha bilimlarni amalda qo'llash talab etiladi. Bu borada podpolkovniklar – Kamoliddin Mamasoliyev, Omdjon Mamadaliyev hamda mayor Dostonbek Qosimjonovlar kasb sir-sinoatlarini o'rgatishdi. Hozir ham biror ishni bajarishdan avval ularning maslahatini olaman, o'g'irlariga amal qilaman.

Ayni paytda katta leytenant Dilbarxon Umarova xatshunoslik va hujjatlarni tadqiq qilish ekspertizasi bilan shug'ullanadi. Bugun fuqarolar orasida firibgarlik

holatlari ko'payib ketishi barobarida, jinoyatlarni fosh etishda aynan hujjatlar ekspertizasining ahamiyati katta bo'lmoqda.

– Odamlar o'zaro oldi-berdi munosabatlarida rasmiy hujjatlar tuzib, imzolar qo'yishadi. Keyin esa «bu mening imzom emas», deb inkor qilish holatlari uchraydi, – deydi u. – Ana shunday vaziyatlarda ekspertiza haqiqatni ochib beradi. Shuningdek, iqtisodiy jinoyatlarni fosh etishda, hujjatlarda yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni aniqlashda ham ekspertiza ishlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu tariqa, bir oyda o'rtacha 30–40 ta ishning ijobiy yechimi topilishiga hissa qo'shyapman.

U faqat o'z kasbining ustasi emas, balki izlanuvchan, bilimga chanqoq xodim ham. Bu esa turli ko'rik-tanlovlardagi natijalarda yaqqol namoyon bo'lgan. «Eng yaxshi ekspert», «Zakovat», «Kibtobxon ayol», «Temur tuzuklari



bilimdoni», «Ajdodlar izidan» kabi respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda munosib o'rinlarni egalagani bunga yaqqol misoldir. 2025-yili esa «To'maris» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

– Mutolaani hech qachon to'xtatmayman. Ayni paytda ham huquqiy risolalar o'qib, kelgusi rejalarimni ilmiy yondashuvlar asosida quryapman. Bunda ustozim, iste'fodagi polkovnik G'ulomjon Rahimovning yordamlari katta bo'lmoqda, – deydi u mamnunlik bilan.

To'g'ri, Dilbarxon ustozlardan yolchigan. Qay bir ishga qo'l urmasin, hamisha ustozlari ko'makka shay. Biroq kasbiy muvaffaqiyati ortida oilaviy tarbiya, sabr va matonat turgani uning hayot yo'lida yanada yaqqol ko'rinadi.

– Otam rahmatli 14 yoshimda olamdan o'tgan, – deydi u afsus bilan. – Shu sababli turmush tashvishlari onam Nargizaxon Umarova yelkasida qolgan. U kishi ham hamshira, ham o'qituvchi sifatida ishlab, men va ukalarimning ta'lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratdi. Onamning mehnatda fidoyiligi, tarbiyasi menga hayotda ham, xizmatda ham kuch bag'ishladi.

Bugun unga havas qilgan, undan o'rnak olgan ikki nafar ukasi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda. O'zi esa hamkasblari orasida ham ibrat namunasi bo'lib kelmoqda.

Insonning muvaffaqiyati yoshga emas, bilimga bog'liq. Xodim qanchalik bilimli bo'lsa, muvaffaqiyatning o'zi uning ortidan ergashib yuradi. Katta leytenant Dilbarxon Umarova faoliyati bunga yana bir bor ishonch hosil qilishimizga sabab bo'ldi.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Ochiq eshiklar kuni

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV huzuridagi Qo'riqlash xizmatining tarbiyaviy va madaniy-ma'rifiy ishlari bo'limi tomonidan Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining talaba yoshlari ishtirokida «Ochiq eshiklar kuni» tashkil etildi. Ushbu tadbirda dastlab, yoshlarga qo'riqlash xizmatining afzalliklari to'g'risida, jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini ishonchli qo'riqlashda zamonaviy uskunalardan samarali foydalanishning ahamiyatli jihatlari bo'yicha ko'plab ma'lumotlar berildi. Shuningdek, talabalar Qo'riqlash xizmati muzeyida bo'lib, eksponatlar bilan tanishishdi.

Allamurat XOJANAZAROV,
kapitan.



Xavfsiz turizm

QISHIN-YOZIN MAFTUNKOR QISHLOQ

(Boshlanishi 1-betda.)

Anklav hudud hisoblangan bu qishloqda ko'plab sanatoriylar, shifo maskanlari, dam olish joylari, ziyoratgohlar joylashgan bo'lib, qishin-yozin sayyohlarning qadami uzilmaydi.

O'zbekiston va Qirg'iz Respublikasi davlat rahbarlarining oqilona siyosati tufayli ikki xalq o'rtasidagi do'stlik rishtalari yanada mustahkamlanib, chegaradan o'tish osonlashgach, Shohimardonga boradigan sayyohlar soni ham ortdi. Masalan, yoz mavsumida bir kunlik turistlar oqimi 15–20 ming, qish faslida esa 5–7 ming nafar kishini tashkil etmoqda.

Keyingi to'rt-besh yil ichida hududda 100 tadan ortiq uy mehmonxonalari, 50 tadan ortiq dala hovlilar,

kafe va oshxonalar, savdo shoxobchalari ishga tushirildi. Barcha dam olish maskanlarida sayyohlarning maroqli hordiq chiqarishi uchun qulay shart-sharoitlar muhayyo qilingan.

– Shohimardon qishlog'i Pomir-Oloy tog' tizmalari bag'rida, dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan bo'lib, asosan ziyorat va sayohat turizmi jadal rivojlangan, – deydi Farg'ona viloyati hokimligi huzuridagi «Shohimardon» turizmni rivojlantirish direksiyasi mutaxassisi Manzuraxon Mo'minova. – Sayohatchilar bu maskanga ona tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish bilan birga, Hazrat Ali nomi bilan ataluvchi qadamjoni ziyorat qilgani ham kelishadi.



Shohimardonni to'rt tarafdin o'rab turadigan haybatli tog'lar mo'jizaning o'zginasi. Tabiiy giyohlardan oziqlanadigan echki suti va qatig'ini ichsangiz, tog' asali, shifobaxsh meva hamda rezavorlaridan tatib ko'rsangiz, tanangiz yayrab ketadi. Bu yerdagi zilol suvning tarkibida inson salomatligiga foydali makro va mikroelementlar juda ko'p ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Yam-yashil archazorlar esa bronxial astma va nafas yo'li kasalligi bilan og'rigan bemorlar uchun eng foydali joy sanaladi.

Shohimardonning janubiy tarafida, dengiz sathidan 3000 metr balandlikda, Qirg'iz Respublikasi hududida bir mo'jizaviy ko'l bor. Uni «Qurbon ko'li» deb atashadi.

Mahalliy aholining aytishicha, qachonlardir ko'l o'rnida aholi yashagan. Biroq kunlarning birida kutilmaganda zilzila oqibatida tog'lar ko'chib tushadi va ular halok bo'lishadi. Allohning mo'jizasi tufayli odamlar qurbon bo'lgan manzilda esa bir ko'l paydo bo'ladi. Uning nomini odamlar «Qurbon ko'li» deb atashadi. Suvi ko'm-ko'k bo'lgani sabab, ba'zan «Ko'k ko'l» deb ham yuritishadi.

Ilgari ma'lum sabablarga ko'ra, bu ko'lga boradigan yo'l ham yopilgan edi. Ikki davlat rahbarining tashabbusi bilan yo'l qayta ochilib, osma dor yo'li ishga tushdi.

Farg'ona viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi tomonidan dam olish maskanlari va ularga olib boruvchi turistik yo'nalishlarda fuqarolar hamda sayyohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida profilaktik tadbirlar muntazam amalga oshirib kelinyapti. Bu yerda Farg'ona tumani Ichki ishlar bo'limiga bo'ysunuvchi huquq-tartibot maskani, uning tarkibida 2 nafar profilaktika inspektori, patrul-post va yo'l harakati xavfsizligi xodimlari ham faoliyat olib borishadi.

Hayot tashvishlari-yu ro'zg'or yumushlaridan charchab, ko'nglingiz sokinlik istasa, albatta, Shohimardonga boring. Ishoning, tog'lar haybati-yu zilol suvning jilvasidan ruhingiz orom topadi. Sayohatingiz xavfsiz va maroqli o'tishiga esa shubha yo'q.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



Ayol va jamiyat

BARCHASI UYG'UNLIKDA

Sayxunobod tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant Mashhura Abdumalikova o'z oldiga katta maqsad qo'ygan ayol. Uning xizmat faoliyatini, ta'lim va oilani birdek olib borayotgani tahsinga sazovor.

Zomin tumanida tug'ilib o'sgan Mashhurani taqdir Sirdaryoning Sayxunobod tumaniga yetaklab kelganida 19 yoshda edi. Zomin pedagogika kolleji va Jizzax pedagogika institutini tamomlagan lavhamiz qahramoni oilali bo'lganidan keyin ham, intilishlaridan voz kechmadi: Toshkent Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistraturasini sirtidan tugatdi. Magistrlik diplom ishi oilada zo'ravonlikning oldini olish, gender tengligi

masalalariga bag'ishlandi.

Mashhura hozirgi lavozimida xizmat faoliyatini boshlaganiga ko'p bo'lgani yo'q. Shu qisqa vaqt ichida qat'iyati, kuchli shijoati, zimmasidagi vazifalarga jiddiy yondashishi bilan hamkasblari va rahbariyat ishonchini qozona oldi.

Uning har kungi ishi xotin-qizlar huquqlari, oilaviy nizolarga doir murojaatlarni o'rganishdan boshlanadi. Mahalla yettiligi bilan birga nizolarga yechim izlaydi.

Zarurat tug'ilsa, himoya orderi beriladi. Shuningdek, mahallalar, ta'lim maskanlarida bo'lib, targ'ibot tadbirlarini o'tkazadi. Keyin idoraga qaytib, hujjatlar bilan shug'ullanadi. Xususan, probatsiya nazoratida turadigan, jinoyatga moyil, ishsiz ayollarning holidan xabar oladi. Ularning muammolarini yechishga harakat qiladi.

Leytenant Mashhura Abdumalikova o'z ustida ishlashdan aslo to'xtamaydi. U o'tgan yili viloyat miqyosidagi «Eng yaxshi inspektor-psixolog» ko'rik-tanlovining g'olibi bo'ldi. Shu bilan birga, mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy ish olib bormoqda. Niyati –



falsafa doktori darajasiga erishish. Muhimi, oilada barcha – qaynona-qaynatas, turmush o'rtog'i va uch nafar farzandi, qolaversa, hamkasblari uni qo'llab-

quvvatlaydi. O'z o'rnida, u ham buni yuksak qadrlaydi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Награжденные Родиной



ХАРАКТЕР, ЗАКАЛЕННЫЙ СЛУЖБОЙ

В преддверии 34-й годовщины Вооруженных Сил Узбекистана и Дня защитников Родины Указом Президента была отмечена группа сотрудников правоохранительных органов. Среди награжденных медалью «Жасорат» – сержант Александра Ким.

Путь героини очерка в профессию начался еще в период обучения в Ташкентском радиотехническом техникуме, где она увлеклась пулевой стрельбой. Спортивное хобби переросло в дело жизни: активные тренировки в секции и достойные выступления на состязаниях республиканского уровня заложили основу ее будущего.

В 1998 году Александра была принята в ряды Вооруженных Сил. Начав службу как военнотрудовой спортсмен в структуре ЦСК Минобороны, она зарекомендовала себя как человек исключительной выдержки. Железная самодисциплина и способность



сохранять хладнокровие на огневом рубеже стали фундаментом, который

позволил ей успешно выполнить норматив мастера спорта.

В 2001 году сержант А. Ким была переведена в систему МВД – в мобильный отряд ГУВД Ташкента, где теория проверяется практикой в самых ответственных заданиях. Она не раз принимала участие в пресечении противоправных деяний, задержании опасных преступников. Сегодня Александра Владимировна – старший специалист отряда мобильного батальона оперативного назначения Главного управления. Коллеги говорят о ней с глубоким уважением, неизменно подчеркивая: «Она – образец дисциплины и требовательности».

Годы службы наложили отпечаток на характер Александры, наполнив его внутренней силой, сделав цельным и глубоким. Но за внешней строгостью скрывается мудрый наставник. А. Ким уделяет

большое внимание подготовке новобранцев, передавая им уникальный опыт и тактическое мастерство. Сегодня те, кто учился у нее азам профессии, видят в ней эталон истинного профессионализма.

Особое место в ее деятельности занимает работа в составе группы «Тумарис» – подразделения, объединившего силу и доблесть современных женщин. Здесь ее навыки и психологическая устойчивость служат эталоном, на который равняется молодое поколение сотрудниц органов правопорядка.

Полученную медаль сержант А. Ким считает заслуженной всего коллектива:

– Воспринимаю награду как оценку мастерства всех моих коллег, с которыми плечом к плечу стоим на защите закона.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Я горжусь!

«ДЕЛАЕТ МИР ДОБРЕЕ»

Мы живем в Баяуте небольшой, но дружной семьей. Сейчас наш папа в командировке, и главной опорой стала мама. Порой я удивляюсь, как ей удается быть такой сильной и нежной одновременно. Несмотря на сложную и ответственную службу, она окружает нас невероятным теплом. Каждое утро мама, улыбаясь, будит нас, и, как по волшебству, на столе уже ждет горячий завтрак. Поразительно, как она все успевает?!

Мама служит в органах внутренних дел и помогает женщинам, попавшим в беду. По вечерам, когда город затихает, она иногда рассказывает о своем дне.

Однажды она рассказала об одном случае. Жила женщина с маленьким сыном. В их доме поселилась грусть. Она часто плакала, потому что муж вел себя неправильно – обижал ее. В тот день, когда мама пришла к ним, мужчина снова пытался затеять ссору. Но мама не испугалась, а спокойным и уверенным голосом объяснила, что семья – это место для любви, а не для боли. Муж с женой слушали внимательно, опустив глаза. В конце концов мужчина подписал бумаги и твердо пообещал: «Хорошо, я больше никогда не подниму на нее руку».

Когда закончился рассказ, я спросил: «Мама, это и есть та самая доброта, о которой ты говорила?». Она улыбнулась и ответила, что примирение людей,

которые потеряли общий язык, – одно из самых важных и добрых дел на свете.

Мама часто выступает перед людьми: объясняет женщинам, почему важно жить честно и как защитить свои права. Когда она рассказывает нам, как люди в зале аплодируют ей, меня переполняет гордость. Часто представляю ее на службе: как она четко и уверенно отвечает

начальнику, как решительно стучат клавиши ее компьютера...

Недавно мама сделала сюрприз – повезла нас с сестренкой в Гулистан, в театр. Но это была не просто поездка. В тот день там проходило торжественное собрание. Мы сидели в красивом зале и слушали речи руководителей. И вдруг со сцены громко объявили:

– Старший лейтенант Сурайё Пулатова!

Мама вышла на сцену – такая красивая и статная. Ей вручили цветы выразили благодарность за труд. Мы с сестренкой хлопали громче всех.

Теперь сестренка только и говорит о том, что, когда вырастет, обязательно станет такой же, как мама. А я точно знаю: наша мама –



настоящий герой, она делает мир чуточку добрее каждый день.

Шербек БАХТИЁРОВ,
ученик 6-го класса
общеобразовательной
школы № 15 Баяутского
района.

Сырдарьинская область.

O'taliqqa olingan yoshlar

ERTANING EGALARI



Yakkasaroy tumanida o'taliqqa olingan og'ir toifadagi yoshlar bilan manzilli ishlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda tuman bo'yicha jami 202 nafar alohida e'tibor talab etuvchi yoshlar ro'yxati shakllantirilgan. Ularning har biri tuman hokimi, prokurori, IIOFMB boshlig'iga nomma-nom biriktirilgan.

Xususan, tuman IIOFMB boshlig'i, podpolkovnik Alisher Murodov va o'rinbosarlari tomonidan 64 nafar yosh o'taliqqa olinib, ularning muammolarini hal etish hamda jamiyatda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunchaki

ro'yxat shakllantirish bilan ish bitmaydi. IIOFMB rahbariyati har bir yoshning xonadoniga kirib, ular bilan yuzma-yuz suhbatlashildi. O'rganishlar natijasida 21 nafar yoshni qiynab kelayotgan muammolar aniqlandi.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash va ularga moddiy yordam ko'rsatish, fuqarolik pasportini rasmiylashtirish, yoshlarning bilim olishini qo'llab-quvvatlash uchun chet tillarini o'rgatish kurslari hamda oliy ta'lim muassasalaridagi shartnoma to'lovlarini qoplash bo'yicha amaliy choralar ko'rilmogda.

Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 3-bosqich talabasi M. Ro'zimovning 7 million so'mlik shartnoma puli to'lab berildi. Bu nafaqat moddiy yordam, balki bir yigitning ilm olishiga va

kelajakka bo'lgan ishonchiga tikilgan sarmoya. Bundan tashqari, U. Abilov hamda V. Dolgixlarga shaxsini tasdiqlovchi hujjat olishda amaliy yordam berildi.

Shuningdek, yoshlar o'rtasida ochiq muloqotlar ham tashkil etilmoqda. Xususan, «Rahbar va yoshlar» uchrashuvlarida kontrakt to'lovlari, bandlik va tadbirkorlikka oid murojaatlar tinglanib, joyida yechim choralari belgilanmoqda.

Yoshlar bilan ishlash shunchaki hisobot emas, balki ertangi kunimiz egalari taqdiriga daxldorlikdir. Tuman IIOFMB tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi xayrli ishlar «Hech bir yosh e'tibordan chetda qolmaydi» degan ezgu tamoyilning amaldagi ifodasidir.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Mahalla tinch – yurt tinch

YETTI KUCH – BIR MAQSAD

Zarafshon shahridagi «Yulduz» mahallasi bugungi kunda Navoiy viloyatidagi har jihatdan namunali mahallalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Qariyb 7000 nafar aholi istiqomat qiladigan ushbu hududda ko'p qavatli uylar ham, hovlilar ham mavjud.

Mahallada maktab, bog'chalar, kafe va barlar faoliyat yuritadi. Aholi osoyishtaligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, turmush farovonligini oshirish barcha yo'nalishdagi ishlarini tizimli olib borishni taqozo etadi. Shu bois mahalla yettiligining bir maqsad yo'lida o'zaro hamkorligi juda muhim.

Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish profilaktika inspektori, kapitan Bahodir

Ahmedov zimmasida. U Zarafshonda tug'ilib o'sgani uchun shaharning ijtimoiy muhitini yaxshi biladi. Inspektorning tashabbusi bilan mahallada trenajyor zali tashkil etildi. Bugun ushbu maskanda yoshlar sport bilan shug'ullanib, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishmoqda.

Kapitan Bahodir Ahmedov mahalla yettiligining boshqa a'zolari, xususan, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim va hokim yordamchisi bilan qo'lni qo'lga be-

rib faoliyat olib boryapti. Jumladan, vaqtincha ishsizlarning bandligini ta'minlash, kam ta'minlangan oilalarning muammolarini joyida hal etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Yoshlar yetakchisi tomonidan sport musobaqalari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam o'tkaziladi.

Mahalla fuqarolar yig'ini raisi Zuhridin Ikromov — iste'fodagi mayor. Uning ichki ishlar organlaridagi faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi mahallada osoyishtalikka, huquq-tartibotni ta'minlashda, aholi o'rtasida mehr-oqibat, o'zaro hurmat muhitini mustahkamlashda asqatmoqda.

– Mahalla yettiligi bir jamoa bo'lib ishlayapti. Lekin hali ko'zlan-

gan maqsadga erishganimiz yo'q. Ko'p ishlar bizni oldinda kutyapti, – deydi u.

Zarafshon – sanoat rivoj topib borayotgan shahar. Shu sababli aholi salomatligini yaxshilashda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, atrof-muhit muhofazasi masalalariga e'tibor qaratish muhim omildir. Shuning uchun «Yulduz» mahallasida tez-tez hashar o'tkazilib, ko'kalazorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, bolalar ona tabiatni asrab-avaylash, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalanmoqda.

– Biz mahallamiz ayollari bilan suhbatlashib, ularning muammolarini aniqlab, hal qilish choralari ko'ramiz. Zarur bo'lganda ishga joylashishlarida ko'maklashamiz, huquqiy maslahatlar beramiz, – deydi mahalla xotin-qizlar faoli Laylo Tursunova.

Ha, «Yulduz» mahallasi yettiligining aholi bilan uzviy hamkorligi, ochiq muloqoti va amaliy tashabbuslari o'z samarasini bermogda. Buni mahallaning obodligida, hududda osoyishtalik hukm surayotganida, ishsizlarning bandligi ta'minlanayotganida, odamlar ertangi kunga ishonch bilan qarayotganida ko'rish mumkin.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Tuman IIBda

VAZIFA ANIQ, REJA PUXTA

HAR YURAKDA MUNOSIBLIK HISSI BO'LSA

– Faoliyatda samaradorlikning eng muhim omili, avvalo, xizmat intizomiga rioya qilishdir, – deydi tuman IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Kamoliddin Yakubov. – Bunda shaxsiy tarkib bilan «xodimbay» ishlash tizimi doirasida ularning muammolarini, oilaviy sharoitini, ruhiyatini muntazam o'rganib borishni kundalik faoliyatimning asosiga aylantirganman. Chunki oilasi tinch, ro'zg'ori but, salomatligi joyida bo'lgan xodim o'z vazifalarini sidqidildan bajaradi, yuragida munosiblik hissi bilan xizmat qiladi.



Parkent tumanida 53 ta mahalla bo'lib, unda 182 000 nafar aholi istiqomat qiladi.

MAHALLA – MASLAK MASKANI

– Mahallamizdagi 530 ta xonadonda 3030 nafar aholi istiqomat qiladi, – deydi «Qayilma» MFY raisi Jasur Salimov. – Shuningdek, hududimizda 1 ta maktab, 5 ta bog'cha, 20 ta tadbirkorlik subyekti, 500 o'rinni tikuvchilik fabrikasi, poyabzal, mebel, sutni qayta ishlash sexlari hamda «Parkent sabzavotlari» issiqxonasi mavjud.

Ushbu hududda ilk xizmat faoliyatimni boshlagan kezlirim mahallamiz «qizil» toifada edi. Mahalla yettiligi, faollar o'zaro maslahatlashib, maslakdosh bo'lib ishlaganimiz o'z samarasini beryapti. Aytgancha, mahallamiz ko'chalari-ga 70 ta kuzatish, 18 ta shaxsni yuzidan tanib oladigan videokamera, 3 ta yo'nalishni masofadan boshqarishni qo'llab-quvvatlaydigan (PTZ) kamera, tashvish tugmalari o'rnatildi. Xavfsiz ko'cha va xavfsiz yo'laklar tashkil etildi. O'tgan yilda sodir etilgan birgina firibgarlik holati bilan «sariq» toifaga tushib qoldik. Joriy yilning birinchi uch oyligi yakunida «yashil» toifaga o'tishni ko'zlayapmiz. Buning uchun mahalla yettiligi, ayniqsa, profilaktika inspektori-miz, kapitan Sanjar Alimov xayrli, davomli ishlarimizga kamarbasta bo'lmoqda.



«PARKENT TAJRIBASI» AMALDA

Nizoli va notinch oilalarda jinoyatlarning oldini olish maqsadida o'tgan yilning sentabr oyidan «Parkent tajribasi» yo'lga qo'yilgan edi, – deydi tuman IIB HPB XQMB katta inspektori, katta leytenant Nodira Mahkamboyeva. – Tuman IIB Navbatchilik qismiga oila-turmush doirasidagi nizoli va notinch oilalardan kelib tushgan takroriy murojaatlar ro'yxati shakllantirildi. Tuman IIB rahbariyati tomonidan ham muntazam profilaktik suhbatlar o'tkazildi. Oilalarda o'rganish, yarashtirish borasida chora-tadbirlar olib borildi. Jinoyat yuzasidan ogohlantirish yo'lga qo'yildi. Natijada notinch va nizoli oilalarda huquqbuzarliklar sodir etilmadi, qayta murojaatlar ham kelib tushmadi. Aynan shu yo'nalishdagi huquqbuzarliklar soni o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilgani-da kamayishiga erishildi.



XATONI KECHIRISH – IMKONIYAT

– Menga tayinlangan ikki yil-u o'n oy jazo muddatining bir yarim yilini panjara ortida o'tkazdim, – deydi fuqaro Navbahor Eshova. – Davlatimizning bag'rikenglik, kechirimlilik, insonparvarlik siyosati tufayli afv etilib, muddatidan oldin ozodlikka chiqib, oilam bag'riga qaytdim. Hozir Probatsiya ro'yxatida turaman. Jazoni ijro etish muassasasidan qaytganimdan keyin hayotga moslashishim oson kechmadi. Bunda menga XQMB katta inspektori, katta leytenant Nodira Mahkamboyeva va Probatsiya guruhi katta inspektori, kapitan Ilhom Abdullayev beminnat yordam berishdi. Hozirda uyimga yaqin 3-maktabda farrosh bo'lib ishlayapman. Hayotim sekin-sekin iziga tushayapti. Avvallari uyimda buyurtmaga patir, somsa, qatlama tayyorlab berardim. Shu ishimni yana boshlashga biroz mablag'dan muammoim borligini aytgandim. Bankdan kredit olib, ish boshlashim mumkin ekan. Endi avvalgidek ishlarimni yo'lga qo'yish niyatidaman. Xatoni kechirish – imkoniyat, deb bilib harakat qilyapman.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.
Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.

Toshkent viloyati.

Тўйхат ўрнида

ЭЗГУЛИККА ЙЎҒРИЛГАН УМР

Касбга садоқат ва ҳалол меҳнат – инсон умрини безайдиган фазилатлар. Бундай фазилатларга эга кишилар барча ҳавас қиладиган ҳаёт йўлини босиб ўтишади. Ана шундай юртдошларимиздан бири истеъфодаги подполковник Пирмат Аҳмедовдир.

Қарши туманида, оддий ишчи оиласида дунёга келган Пирмат Аҳмедов болалигидан билимга чанқоқ бўлиб вояга етган. Мактабни аъло баҳоларга тамомлаб, Тошкент давлат университетининг тарих факультетига ўқишга кирган лавҳамиз қаҳрамони талабалик йилларида ҳам илмга бўлган иштиёқи, интилиши билан тенгдошлари орасида ажралиб турди.

Бир неча йил Қарши шаҳридаги касб-хунар мактабида ишлаган Пирмат Аҳмедов ёшлар тарбияси, уларнинг маънавий камолоти йўлида сидқидилдан хизмат қилди. Ана шу фидойилик уни 1983 йили ички ишлар органлари сафида хизмат қилишга етаклади.

Тизимдаги фаолиятини оддий инспекторликдан бошлаб,

масъулиятли раҳбарлик лавозимларини босқичма-босқич босиб ўтди. Қашқадарё вилояти ИИБ ШТБХ инспектори, Муборак тумани ҳамда Қарши шаҳар ИИБ бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари лавозимларида ишлаган йиллари давомида юртга садоқат, хизмат интизоми ва ҳалолликни шioriга айлантирди. Айниқса, криминоген вазият мураккаб бўлган ҳудудларда жамоат тартибини таъминлаш, ёш ходимларни тарбиялаш бора-сидаги хизмати алоҳида эътирофга лойиқ.

Йигирма саккиз йиллик шарафли хизмат йўлида Пирмат Исмаилович ўз бурчини сидқидилдан адо этди, кўплаб шогирдларни Ватанга муҳаббат ва халққа хизмат қилиш руҳида



тарбиялади. Пенсияга кузатилганидан кейин эса, аввалига Қарши шаҳар ҳокимлигида, кейинчалик маҳалла фаолиятида самарали меҳнат қилди. Айни пайтда «Араловул» маҳалласидаги «Нуроний» жамғармаси бошланғич кенгаши раиси сифатида тинчлик-тотувлик йўлида хизмат қилиб келмоқда.

– Устоз тажрибали инсон, дейди «Араловул» маҳалла профилактика инспектори, катта лейтенант Анвар Содиков. – Бошлаган ишини тугатма-гунча тинмайди. У киши менга ҳам хизматда, ҳам ҳаётда йўл-йўриқлар кўрсатади. Кези келганда оилавий муаммоларни ҳал этишда бош-қош бўлиб келмоқда.

Пирмат Аҳмедов ибратли оила бошлиғи. У турмуш ўртоғи Матлуба опа билан 4 нафар фарзандни тарбиялаб, вояга етказди. Ҳозир улар жамиятнинг турли соҳаларида самарали меҳнат қилмоқда.

Яқинда қутлуғ 70 ёшни қаршилаган подполковник Пирмат Аҳмедовни самимий муборакбод этарканмиз, унга мустаҳкам соғлиқ, узоқ умр, оилавий хотиржамлик тилаймиз. Ибратли ҳаёт йўли, фидойи меҳнати ёш авлод учун ҳамиша ибрат бўлиб қолаверсин.

Содиқ РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.

Қашқадарё вилояти.

Migratsiya profilaktikasi oyligi

XORIJDAGI HAMYURTLARIMIZ DAVLATIMIZ HIMOYASIDA

Вугунги кунда ахборот kommunikatsiya texnologiyalarining jadal taraqqiy topib borishi migratsiya jarayonlarining ham tezlashishiga turtki bermoqda. Fuqarolarning xorijda o'qish, ishlash, davolanish, sayohat, tijorat yoki boshqa zaruratlar yuzasidan chiqishi masalalari osonlik bilan hal etilmoqda.

Аmmo «Har yerni qilmagin orzu, har yerda bor tosh-u tarozi» deb bejiz aytilmagan. Inchunun, xorijga chiqqan har bir kishidan shu yurtning tartib-qoidasi, qonunlariga rioya etish talab qilinishi tabiiy holdir. Lekin chet elda bo'lgan

kishilar ba'zan kutilmagan holatlarga tushib qolishi ham mumkin. Shunday paytlarda o'z davlati tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, qonuniy huquq va manfaatlarining himoya qilinishiga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Dunyodagi boshqa mamlakatlar qatori, O'zbekiston ham migratsiya jarayonlarining faol ishtirokchisi hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan xorijdagi hamyurtlarimizning himoyasini ta'minlash, muammolarini hal etish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning 1-yanvar sanasidan 30-yanvariga qadar yurtimiz bo'ylab o'tkazilayotgan «Migratsiya profilaktikasi oyligi» tadbirlarini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Oylikni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad – mehnat migratsiyasi jarayonlarini tezlashtirish, xorijda ishlayotgan vatandoshlarimizni qo'llab-quvvatlash, yurtimizdan tashqariga chiqib ketayotgan va mamlakatimiz hududiga kirib kelayotgan shaxslarning aniq hisobini yuritish, bu boradagi ma'lumotlar bazasini yaratishdan iborat.

Tadbir davomida doimiy yashash manzilidan xorijga uzoq muddatga chiqib ketgan va qaytib kelgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar «Yagona migratsiya» elektron ma'lumotlar bazasiga kiritilyapti. Hududiy profilaktika inspektorlari yashash manziliga qaytib kelgan shaxslar bilan suhbatlar o'tkazishmoqda. So'rovnomalarning to'g'ri to'ldirishi hamda migrantlarning tibbiy tekshiruvdan o'tishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti.

– Mazkur oylikni o'tkazish bo'yicha Qoraqalpog'istonda mavjud barcha ovul va makon fuqarolar yig'inlarida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, hozirgi kunga qadar 22 ming nafardan ortiq xorijda yurgan fuqarolar bilan onlayn tarzda yoki ularning oila a'zolari orqali suhbat o'tkazildi. Bundan tashqari, 12 ming nafardan ortiq xorijdan qaytgan fuqarolar bilan ovul va makon faollari ishtirokida suhbatlar tashkil etilib, ularning ijtimoiy holati va muammolari o'rganildi. Ayni paytda aniqlangan muammolarning yechimini topish choralari ko'rilmogda, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX HPB boshlig'ining o'rinbosari, mayor Islam Joldasov.

Shuningdek, targ'ibot tadbirlarida odam savdosidan jabr chekmaslik, buzg'unchi guruhlar ta'siriga tushib qolmaslik, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jinoyatchilikning oldini olish yuzasidan aholiga tushuntirishlar berib borilmoqda. O'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlarining ta'sirchanligini, fuqarolarning boxabarligini oshirish maqsadida televideniye, ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan samarali foydalanilyapti.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.



Zamon bilan hamnafas

HAMMASI KAFTDAGIDEK

Mirzaobod tumani IIB Kuzatuv markazi orqali jinoyatlar fosh etilmoqda

Mirzaobod – hududini «Toshkent – Jizzax» katta avtomagistrali kesib o'tgan, viloyat markaziga tutash yirik tumanlardan biri. Tumanda keyingi yillarda jamoat xavfsizligi, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga alohida mas'uliyat bilan yondashilib, barcha mahallalar, avtomagistral yo'l, aholi gavjum maskanlar zamonaviy videokuzatuv kameralari bilan qamrab olindi. Birgina o'tgan yilning o'zida yuzga yaqin ana shunday kuzatuv vositalari o'rnatildi. E'tiborlisi, ular tunda ham kunduzgidek «ko'ra oladi», harakatni ilg'aydi. Ayrimlari «Face ID» xususiyatiga ega va shaxsni yuzidan taniydi.

Videokuzatuv vositalarining aksariyat qismi Kuzatuv markaziga ulangan. Qariyb uch yildan beri faoliyat ko'rsatayotgan markazda tumandagi vaziyatni kuzatish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Eng muhimi, «xavfsiz mahalla» tamoyili ijrosi doirasida yaratilgan ushbu tizim natijasida jinoyatchilik darajasini pasaytirish imkoniyati vujudga keldi.

– Kuzatuv markazi xizmat faoliyatimizda juda qo'l kelmoqda, – deydi tuman IIB JXX JQB katta tezkor vakili, leytenant Xurshid Bosimov. – Ayniqsa, o'g'rilik, bezorilik kabi jinoyatlarni «issiq izida» ochishga erishilmoqda.

...O'tgan yili avgust oyida «Tinchlik» mahallasida yashovchi fuqarodan tuman IIBga narxi taxminan 10 million so'mlik qoramol yo'qolgani to'g'risida murojaat tushdi. O'g'rilar buqani ustalik bilan olib chiqib ketishgan. Ulardan hech qanday iz qolmagan. JQB tezkor xodimlari Kuzatuv



markazi orqali videokuzatuv yozuvlarini tahlil qilishdi. O'g'rilik sodir bo'lgan tungi vaqtda mahalladagi yo'ldan o'tgan o'ndan ortiq avtomashinalarning yo'nalishi, egalari to'g'risidagi ma'lumotlar

o'rganildi. Natijada davlat raqami olib qo'yilgan oq rangli «Labo» shubha uyg'otdi. Avtomobil egasining shaxsi o'rganilganida esa, u Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida istiqomat qilishi, muqaddam o'g'rilik jinoyati bilan sudlangani ma'lum bo'ldi. O'ttiz yoshli ushbu shaxs o'zining jinoiy sherigi bilan tungi paytda oldin ham bir necha marta mahallaga kelib-ketgan. Tezkor tadbir nati-

jasida jinoyatchilar o'zlari yashaydigan hududda qo'lga olindi. Ular qoramolni molxonaga yashirib qo'yishgan ekan.

Tuman IIBga «102» orqali «Mirzacho'l» mahallasidan oltita qo'y o'g'irlangani to'g'risida xabar olindi. Tezkor guruh voqea joyini o'rganib chiqqach, Kuzatuv markaziga murojaat qilindi. Izquvarlar bir qancha avtomobillarning harakatini tahlil qilishdi va chirchiqlik fuqaroga tegishli «Damas» avtomashinasidagi shaxslar gumonga olindi.

Tezkor guruh vaziyatni qo'ldan chiqarmaslik uchun Chirchiq shahrida tezkor tadbir o'tkazdi. Natijada muntazam o'g'rilik bilan shug'ullangan 6 nafar shaxs qo'lga olindi. Surishtiruvlarda ularning boshqa hududlarda ham sodir etgan bir qancha jinoyatlari ochib tashlandi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi mana shunday holatlar yuzasidan yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Bu zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi jamoat xavfsizligi va tartibini saqlashning muhim kafili bo'lib xizmat qilayotganini isbotlaydi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

Bir tuman tarixi

«CHIROQCHI», «SIRAKCHI» YOKI «SIROQCHI»?



Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumani

1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Hududi 1,3 ming kv. km. Aholisi 274 ming nafar kishidan iborat. G'arbda Ko'kdala tumani, sharqda Kitob, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlari, janubda Qamashi tumani, shimolda esa Samarqand viloyatining Nurobod tumani bilan chegaradosh. Markazi – Chiroqchi shahri.

XVII asrdan boshlab Chiroqchi bekligi hozirgi tuman hududiga yaqin maydonni egallab, Buxoro amirligining yirik bekliliklaridan biri sifatida shakllanib kelgan. 1920–1926-yillarda Shahrisabz viloyati tarkibida bo'lgan. Qisqa muddat, 1962-yildan to 1964-yilgacha Yakkabog' tumani bilan birlashtirilgan. 1964-yilda esa yana alohida tuman sifatida tashkil etiladi.

Xo'sh, Chiroqchi nomi nimani anglatadi?

Milliy ensiklopediya toponimni chiroq yasovchi hunarmandlarga bog'lagan. Biroq etimologik adabiyotlar bunga qo'shilmaydi. Bu fikrning asosli emasligini «chiroqchi» so'zi lug'atlarda chiroq yasovchi sifatida izohlanmagani ham tasdiqlaydi.

Joy nomining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Jumladan, «sirakchi» yoki «siroqchi» nomli qadimgi turkiy urug' nomidan kelib chiqqan, degan taxmin bor. Bu taxminda jon barga o'xshaydi. Sababi, respublikamizdagi ko'plab joy nomlari kabi, Chiroqchi ham qadimgi urug' nomidan olingan bo'lishi mumkin.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

SOG'LOM MILLAT – YURT ISTIQBOLI

Texnologik poyga avj olgan bugungi davrda bizning eng katta boyligimiz – xalqimizning jismoniy va intellektual salomatligidir. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug'lash, aholi salomatligini mustahkamlash va kelajak avlod uchun sog'lom poydevor yaratish davlat siyosatining eng oliy maqsadiga aylandi.



Mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, avvalo, har bir fuqaroning sifatli tibbiy xizmatdan bahramand bo'lishi va millat genofondini muhofaza qilish orqali amalga oshirilmoqda.

Millat genofondi – bu xalqning asrlar davomida shakllangan irsiy imkoniyatlari, jismoniy va aqliy quvvati majmuidir. Uni asrash esa faqatgina tibbiy masala emas, balki milliy xavfsizlikning strategik yo'nalishidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonining tub mohiyati – nafaqat narkojinoyatlarga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini kuchaytiradi, balki, eng avvalo, millatning irsiy butunligi va yosh avlodning jismoniy-ma'naviy kamolotini giyohvandlik degan transmilliy tahdiddan himoya qilishni nazarda tutadi.

Mazkur farmonning hayotga tatbiq etilishida ichki ishlar organlari ham asosiy ijrochi tuzilma sifatida o'z o'rniga ega. Endilikda soha xodimlarining faoliyati nafaqat jinoyatni fosh etish, balki uning kelib chiqish sabablarini «mahallabay» tartibda aniqlash va millat genofondiga raxna

soluvchi xavflarni barvaqt bartaraf etishga qaratilgan. Ayniqsa, so'nggi paytlarda yoshlar orasida «ommalashayotgan» sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi «Qoradori» hamda «Xavfsiz va sog'lom yurt» kabi keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlar doirasida turli ko'rinishdagi sa'y-harakatlar izchil davom ettirilmoqda.

Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarining ta'lim muassasalari va mahallalarda yoshlar bilan bevosita muloqot o'rnatishi, giyohvandlikning ayanchli oqibatlarini ilmiy va hayotiy asoslarda tushuntirishi «profilaktik immunitet»ni mustahkamlamoqda. Bir so'z bilan aytganda, ichki ishlar organlari bugun millat genofondini asrash yo'lida xalqning sog'lom kelajagini himoya qiluvchi «ijtimoiy qalqon» vazifasini o'tamoqda.

Farmon doirasida amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar yoshlarni zararli illatlar ta'siridan asrash, jamiyatda giyohvandlikka nisbatan murosasiz muhitni shakllantirish va har bir fuqaroning sog'lom kelajagini kafolatlashga xizmat qiladi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ushbu islohotlar zahirida sog'lom millat va kuchli davlat poydevorini yanada mustahkamlashdek ezgu maqsad mujassam.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, har bir mahallada «tibbiy xarita»lar asosida manzilli skrining tadbirlarini o'tkazish tizimi mustahkamlanmoqda. Raqamli tibbiyot texnologiyalarining joriy etilishi esa kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va har bir fuqaroning salomatlik ko'rsatkichlarini doimiy nazorat qilish imkonini bermoqda. Bu – «inson qadri uchun» tamoyilining amaliy ifodasi bo'lib, aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Eng muhimi, sog'lom turmush tarzini umummilliy harakatga aylantirish orqali biz nafaqat bugungi kun muammolarini hal qilamiz, balki kelajak avlodlar uchun mustahkam va sog'lom gen jamg'armasini shakllantiramiz.

Tibbiy madaniyati yuksak, jismonan tetik hamda ma'nan barkamol jamiyat – Yangi O'zbekistonning eng katta boyligi va yengilmas kuchi bo'lib qoladi. Millat genofondini asrash masalasi faqatgina tibbiyot xodimlarininggina va shifoxonalarda davolash ishlari bilangina cheklanib qolmaydi.

Bu mahallabay tizim asosida har bir xonadonga kirib borish, nikohlanuvchi yoshlarning tibbiy ko'rigini sifatli tashkil etish va

yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohning oqibatlarini tushuntirish kabi keng qamrovli ishlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda yurtimizda barpo etilayotgan zamonaviy perinatal markazlar, skrining xizmatlari va sport majmualarining barchasi yagona maqsadga – xalqimizning uzoq hamda sog'lom umr ko'rishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan sharoitlar, qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlar va ajratilayotgan katta-katta mablag'larning asl mohiyati – inson qadrini yuksaltirish hamda millatimizning genetik sofligini saqlab qolishdir.

Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston – sog'lom onalar, barkamol avlod va baxtli insonlar mamlakati sifatida dunyoga yuz tutishda davom etadi. Bu yo'lidagi islohotlar esa xalqimiz roziligi va yurtimiz istiqbolining eng ishonchli kafolati bo'lib qolaveradi. Sog'lom odam baxtli bo'ladi, baxtli odam esa Vatani ravnaq toptiradi.

Sarvar SOBIROV
tayyorladi.



Qoraqalpog
tilidagi
matn.



Rus tilidagi
matn.



Key theses from the video-conference meeting chaired by President Shavkat Mirziyoyev on measures to establish a safe environment and implement exemplary practices for ensuring public security in the city of Tashkent:

A «capital city model» will be implemented to create a secure environment in Tashkent. This system will debut in the Chilanzar district before being expanded to all other areas. Key features of the system include a 5-minute patrol response time and a requirement for internal affairs officers to accept citizen requests regardless of their specific department or jurisdiction. Under this model, an appeal made to a uniformed officer on the street will be legally equivalent to reporting to the «102» emergency hotline. Additionally, drone-assisted patrol surveillance will be established.

Public security management in the districts will be organized under a new framework. The patrol, traffic, security, and crime prevention services will transition to a 24-hour, three-shift operational cycle. A system will be established to ensure that patrol units arrive at the scene within five minutes of receiving a report of an offense.

A specialized department for combating cybercrime will be established within the Ministry of internal affairs, under the direct oversight of the minister. Simultaneously, a dedicated department for cybercrime and digital rights will be formed within the Ministry of justice.

The Agency for the control of narcotics and firearms was criticized for limiting its scope to analysis and international cooperation. Moving forward, the agency's responsibility will be strengthened, granting it the authority to coordinate, monitor, and evaluate the activities of all relevant competent authorities.

Politics

PRESIDENT REVIEWS ACTIVITIES OF TASHKENT CITY SECURITY SERVICE



President Shavkat Mirziyoyev reviewed the activities of the Tashkent city internal affairs security service and the progress of the «safe city» concept. Following the 2025 transfer of the security department from the National guard to the Ministry of internal affairs, public safety efforts have reached a new level, with protected facilities

increasing by 99% and apartments by 118% within a single year. The «Qalqon» information system, powered by artificial intelligence, has been fully implemented, integrating over 42,000 intelligent cameras into a unified platform. The president emphasized the urgent need to combat cybercrime, train specialized personnel, and expand «safe street» projects. Furthermore, goals were set to bring digitalization up to international standards and integrate four additional AI-based systems by the end of the year.



Meetings

OPEN DIALOGUE WITH YOUNG OFFICERS



An open dialogue was held between young officers serving at the Ministry of internal affairs of the Republic of Karakalpakstan and the MIA Academy, and the minister, lieutenant general Aziz Tashpulatov.

During the meetings, it was emphasized that the priority task is to train personnel with high intellectual potential who are proficient in information technology and capable of making independent decisions to counter modern threats.

Throughout the dialogue, the initiatives of young officers from the regions were supported, and specific instructions were issued to create additional conditions for their involvement in sports and scientific research. At the conclusion of the events, the minister honored a group of employees who demonstrated exceptional examples in combating crime and educating the youth in the spirit of patriotism.

Such meetings serve as a vital foundation for determining the future of internal affairs bodies while enhancing the sense of professional responsibility among young personnel.

Tashkent region

In the Parkent district, service discipline and employee welfare have been established as the most critical factors for enhancing operational efficiency. The District department of internal affairs has implemented a «staff-centric» («khodimbay») working system, which is based on the systematic assessment of each officer's family conditions and psychological well-being. This approach is rooted in the principle that an officer whose household is stable and whose mind is at peace will perform their duties with the highest sense of responsibility and integrity.

The role of the «neighborhood seven» and modern digital technologies is paramount in ensuring peace within local communities. For instance, in the «Qayilma» MFY (citizens' self-governing body), seventy surveillance units, including facial recognition cameras, have been installed to establish a «Safe street» system. As a result of these measures, consistent efforts are underway to transition the neighborhood into the «green» category – a status signifying a crime-free zone.

CLEAR OBJECTIVES, RELIABLE PLANNING



The «Parkent experience», which is gaining prominence across the region, is proving highly effective in preventing domestic disputes. By conducting individualized preventive dialogues and mediation efforts with families in conflict, the district has achieved a sharp decline in recidivism and domestic violations.

Furthermore, the state's humanitarian policy provides those who have erred with a

vital opportunity for a fresh start. A systematic framework has been established to facilitate the social reintegration of pardoned citizens, focusing on employment assistance and entrepreneurial guidance. These benevolent initiatives, guided by the principle that «Forgiveness is an opportunity», serve to strengthen social stability and community harmony throughout the Tashkent region.

Yoshlar — kelajak bunyodkori

QALBGA YO‘L TOPISH — G‘ALABA

Samarqand tumani IIB JXX HPB voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhida xizmat burchini sidqidildan bajarib kelayotgan inspektor-psixolog, leytenant Muhammadjon Majidov yaqinda «Eng yaxshi inspektor psixolog» ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichida 50 nafar ishtirokchi orasida faxrli 2-o‘rinni egalladi.



O‘tgan yili IIV Akademiyasini tamomlab kelgan bu yosh mutaxassisga tuman IIB JXX HPB voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha katta inspektori, mayor Umid Hamrayev murabbiy etib biriktirilgan bo‘lib, ular psixologik treninglar, profilaktik suhbatlar va tahliliy ishlarni birgalikda olib borishmoqda.

Ustozining tavsiya va o‘gitlariga amal qilib, nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirib, iqtidori va mahoratini namoyon qilishga intilyapti. Shu maqsadda u xizmat faoliyatiga oid yozgan maqolalaridan 2 tasi xorijiy nashrlarda, 2 tasi esa respublikamiz bosma ommaviy axborot vositalarida chop etildi.

Yosh leytenant o‘ziga biriktirilgan maktablarda xulqi va ruhiyatida o‘zgarish bo‘lgan o‘quvchilar bilan dildan suhbatlashadi,

muammolar sababini topib, tegishli tartibda maqsadli tarbiyaviy ishlar olib boradi. Ota-onasi chet ellarga ketgan o‘quvchilarning ta‘lim-tarbiyasini nazorat qiladi.

– **Ayrim yoshlarning qonunbuzarlik sodir etishiga oiladagi muhit, ota-onaning loqayd va e‘tiborsizligi, farzandiga yetarlicha e‘tibor bermasligi sabab bo‘ladi. Bugungi yoshlarni qo‘rqitish, urushish, tanbeh berish yoki koyish orqali tarbiyalab bo‘lmaydi. Ularga do‘stona muomalada bo‘lib, masalaning salbiy oqibatlarini tushuntirsangiz bas. Xato qilmaslikka, jinoyat va huquqbuzarlik sodir etmaslikka, turli salbiy illatlardan saqlanishga harakat qilishadi,** – deydi leytenant M.Majidov.

Umida MAMADALIYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



Mard o‘g‘lonlar nomi barhayot

OQIB KETGAN ORZULAR

– O‘g‘lim Ilhomjon o‘sha kuni har doimgidek otasi bilan ikkimizdan duo olib, ishga otlangani kechagidek ko‘z oldimdan ketmaydi, – deya Muhayyo aya bundan qariyb yigirma to‘rt yil avvalgi xotiralarini ko‘zida yoshlari halqalana-halqalana tilga oladi. – Onaning yuragi farzandlari bilan butun ekan. O‘g‘illarim, qizim to‘planishsa, nabiralarimning sho‘x-shodon kulgulariga hovlimiz to‘lib ketadi. Ularning shukrini qilaman. Biroq har gal darvoza tiq etsa, to‘ng‘ich farzandim – Ilhomjon ham kulib kirib keladigandek, nigohlarim shu tomonga qadaladi. Ba‘zan ko‘z yoshlarimni bildirmaygina ro‘molimning bir uchiga artib olaman. O‘nta bo‘lsa o‘rni bo‘lak, deganlari rost ekan. Uning bu dunyoda yo‘qligiga hanuzgacha ishongim kelmaydi. Rahbarlari, hamkasblari bayram, tadbirlarda yo‘qlab turishadi. Formali yigitlarga ko‘zim tushsa, uyimdan kulib chiqib ketgan qoraqosh o‘g‘limni axtaraman.



Toshkent viloyati IIB huzuridagi Qo‘riqlash boshqarmasining Qodiriya suv inshootini qo‘riqlash bo‘yicha alohida batalyoni vzvod komandiri, leytenant Ilhom Islomov 2002-yilning 25-dekabr kuni odatdagidek xizmat vazifasini bajarishga kirishadi. Tun yarmidan oqqan payt u hamkasbiga tegishli velosipedni minib, postlarni aylanishga ketadi. Shunda suv inshootida mashinist-kuzatuvchi bo‘lib ishlovchi Ruslan hamda uning akasi Baxtiyor Soipovning quduqlarga o‘rnatilgan uskunalarini yechib olib, juftakni rostlamochi bo‘lib turgani ustidan chiqib qoladi.

– Qani, yuringlar bo‘linmaga boramiz, o‘sha yerda hammasini tushuntirib berasizlar, – deydi Ilhom Islomov.

Aka-uka o‘g‘rilar esa osoyishtalik posboniga o‘zaro kelishishni taklif etishadi. Burchiga sodiq xodim o‘z so‘zida qat‘iy turadi. Leytenant o‘g‘irlangan narsalarni bo‘linmaga olib borib rasmiylashtirsa, ikkovi ham jinoiy javobgarlikka tortilishi tayin ekanligini bilgan Baxtiyor xodimni gap solib chalg‘itadi. Paytdan foydalangan Ruslan esa yerdan darhol tosh olib, uning boshiga urib yerga yiqitadi. Jinoiy qilmishini yashirish va jazodan qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da qutulish uchun ular xodimni ayovsiz urib-tepkilashadi. Yonidagi xizmat qurolini tortib olib, o‘zini chalajon ahvolda Chirchiq daryosiga tashlab yuborishadi...

Leytenant Ilhom Islomovning Chirchiq daryosidan topilgan oyoq kiyimi o‘g‘ri aka-ukalarning o‘sha mash‘um tundagi jirkanch qilmishlarini fosh etilishiga asos bo‘ldi.

– O‘g‘lim menga havas qilib, Ichki ishlar vazirligining Yong‘in xavfsizligi oliy texnik maktabini tamomlab, shu sohada faoliyat boshlagandi, – deydi

iste‘fodagi podpolkovnik Ibrohim Islomov. – Ilhomjon menga yaxshi izdosh bo‘lishiga ishonchim komil edi. Afsus, umri qisqa ekan. O‘g‘lim vafotidan so‘ng Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, «Jasorat» medali bilan mukofotlandi. Ichki ishlar vaziri qo‘lidan medalni qabul qilib olar ekanman, farzandim oyog‘imi yoki boshqa biror joyimi lat yesa ham omon qolganida edi, deb o‘ylaganman. Ota-ona uchun farzand dog‘i juda og‘ir.

Xizmat burchiga sodiq qolgan, mard o‘g‘lon Ilhom Islomovning nomini abadiylashtirish maqsadida hozirda Qibray tumanidagi u o‘qigan 32-umumta‘lim maktabida xotira burchagi tashkil etilgan. Uning xotirasi yaqinlari, hamkasblari, Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat tuyg‘usi bilan ulg‘ayayotgan




yoshlar qalbida yashamoqda. O‘z nafsi, jirkanch qilmishining izlarini yo‘qotish payida odam o‘ldirishdan ham tap tortmagan kimsalar qonun oldida javob berishdi. Ming afsuski, bo‘y yigitning oppoq orzulari o‘zi bilan daryoda oqib ketdi...

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



Муқаддас қадамжолар

ХОЖА ОРИФ
МОҲИТОБОН
ЗИЁРАТГОҲИ

Ғарбу шарқда маълум ва машҳур бўлган Хожа Муҳаммад Ориф Ревгарий Шофиркон туманининг Ревгар қишлоғида 1165 йилда таваллуд топган. Моҳитобон дейилишига сабаб, Ориф Ревгарий валий бўлиб, қалблари илоҳий нурлар хазинасига айланган эди. Бу нурлар вужудларининг ҳар бир хужайрасидан шуъла сочиб, тажалли этиб порлаб турарди. Хожа Орифда валоят даражаси шунчалик юксак эдики, у киши кирган хужра ёруғ бўларди.

Нақл этилишича, Хожа Ориф ўрта бўйли, ой юзли, катта кўзли, қошлари камон, бутун вужудларидан мушқу анбар ҳиди анқиб турадиган зот бўлган. Шунингдек, улуғ валийлардан бўлиб, илм, ҳилм, зуҳд, тақво, риёзат ва ибодат аҳли эди. Касб-корлари деҳқончилик бўлган ва шу билан ҳаёт кечирган. У Абдулхолиқ Ғиждувонийнинг шогирди, силсилаи шарифдаги 11-ҳалқанинг пири, Бухорои Шариф етти пирининг иккинчисидир. Юз йилдан зиёд умр кўриб, 1259 йил вафот этган. Қабри туман марказида, обод зиёратгоҳга айлантирилган.

Ҳазрат Хожа Муҳаммад Ориф Ревгарий ҳақида Абдурахмон Жомийнинг «Нафоҳатул унс», Алишер

Навоийнинг «Насоимул муҳаббат», Тоҳир Эшоннинг «Тазкирайи нақшбандия» ва бошқа асарларда маълумотлар берилган. Аксарият қадимий манбаларда Хожа Ориф «Қутбул авлий – валийлар йўлбошчиси» деб баҳоланган.

Ориф Ревгарийнинг ҳозирги кунга қадар «Орифнома» рисола сақланган. Рисола 16 бетдан иборат бўлиб, ҳажм жиҳатидан кичик бўлишига қарамай, жуда қимматли ва ноёб манбадир. Асарда орифларга мурожаат этиб, уларга дурдона фикрларини айтган. Рисолада ўзи айтган 27 та ҳикматли сўз, шунингдек, 38 та машойихлар ҳикмати баён этилган. «Орифно-

ма» асари, бир томондан, хожагон таълимотининг мазмун-моҳияти, одоби, камолот йўли ва воситаларни ўргатувчи бир асар бўлса, иккинчидан, бу тасаввуф тарихидаги буюк намоёндалар таълимоти-ни ўргатувчи манбадир.

Хожа Муҳаммад Ориф Ревгарий Моҳитобон номи билан аталадиган жоме масжиди ул зотнинг ўзи ҳаётлик чоғида қурилган бўлиб, ҳозирги жоме масжиди ўрнида катта хонақоҳ, унинг шимол тарафида 40 зинали азон айтишчун мослама бўлган.

**Зиёратгоҳда-
ги даҳма ёғочдан
ўраб олинган бўлиб,
ҳазрат қабри усти-
да оппоқ тиканли**

**ўсимлик ҳеч оқли-
гини йўқотмасдан
қўқариб турар экан.
Зиёратгоҳнинг қиб-
ла томонида чилла-
хоналар бўлган ва
уzun айвон шимолга
қараган ҳамда юқо-
ри тарафида катта
мевали боғ бўлган.
Кўпчилик мусофир-
лар зиёратга келиб,
шу боғ мевасидан
тановул қилишган.
Айвон олдидаги
катта ҳовуздан
сув ичилган. Ҳозир-
ги зиёратгоҳдаги
уч томонли айвон
жуда қадимийдир.**

Зиёратгоҳда кенг кўламдаги ободонлаштириш ва қўшимча бино-

лар барпо этилди. Асосий кириш дарвозаси, минора, эркаклар ва аёллар таҳоратхонаси қурилди, зиёратгоҳ атрофи девор билан ўраб олинди. Туман тарихи ва маданияти музейи очилди. Музейда турли адабий-бадий, маънавий-маърифий адабиётлар жам бўлган мўъжаз кутубхона ташкил қилинди. Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, мазкур зиё масканига маҳаллий аҳоли ҳам кутубхона фондини янада бойитишга ўз ҳиссасини қўшяпти.

**Мирзоқул АҲАДОВ
тайёрлади.**
Бухоро вилояти.

Жумбоқ

ЖАВОБИ
ОСОН САВОЛ

Душанбе шаҳридаги ушбу ажойиб монументда Мир Алишер Навоий устози Абдурахмон Жомийга ҳурмат бажо келтирган ҳолда тик турибди. Бу ерда улуғ бобомизнинг пири устозига эҳтиром белгиси сифатида яна бир ҳолат ҳам кўрсатилган.

Ана шу эҳтиром белгисини топа оласизми?

(Жавобини газетамиз саҳифаларидан изланг)



TEMURIY G'ISHTI

Insonlar qadim zamonlardan o'zlari yashaydigan joylarda qulayliklar yaratish, uylarini tabiatning turli iqlimlariga moslashgan holda qurishga odatlanishgan. Markaziy Osiyo hududiga mos keladigan asosiy qurilish materiallaridan biri loy g'isht bo'lgan. Yurtimizda xom g'ishtdan qurilgan uylar tabiiy ravishda energiya samaradorligini oshirgan va yozning jazirasida salqinlikni, qishning ayozli kunlarida esa issiqlikni saqlagan.

Loydan tayyorlanadigan har qanday g'isht mustahkam va ekologik toza buyum bo'lgan. U qoliplash va pishirish kabi minimal ishlov berishni talab qilgan, xolos, xizmat muddati esa 100 yil va undan ortiq bo'lgan.

Xom g'ishtning asosiy tarkibi sof loydir. Somon bunday materialning pishiqligini oshiradi, kukuni esa uni mustahkamlaydi. G'isht yaratishda eng muhimi – loyning mos turini tanlash. Qayerda joylashganligiga qarab, tuproqning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Lekin har qanday holatda ham, 1 metr chuqurlikdagi tuproqdan foydalanish yaxshi natija beradi.

Xom g'isht. Qadimgi shahar qoldiqlari bo'lgan joylarda arxeologlar har doim ochiq quyoshda quritish yo'li bilan tayyorlangan xom g'ishtlarni uchratishadi. G'ishtning tarixi juda qadimga borib taqaladi va har bir davr uning shakli va ishlab chiqarish texnologiyasiga ta'sir ko'rsatgan.

Markaziy Osiyoda loy asosiy qurilish materialiga aylandi. Loyli minerallardan tarkib topgan tuproq g'isht ishlab chiqarish uchun juda yaxshi va arzon xomashyo bo'lib xizmat qildi. «Afrosiyob» Samarqand shahar tarixi muzeyi ekspozitsiyasida eng qimmatli eksponatlar qatorida qadimiy xom g'isht saqlanmoqda. Unga asosan olimlar Samarqandning yoshini aniqlashga muvaffaq bo'lishdi. Bu 2700–2800 yil oldin ham, Samarqand rivojlangan zamonaviy shahar bo'lgan, degan taxmini tasdiqladi.

Xom g'isht tayyorlashning qulayligi, oddiy va soddaligi uning keng tarqalishiga imkon berdi.

Ammo xom g'ishtning barcha fazilatlariga kabi zaif tomonlari ham bor edi: u namlanganda mustahkamligini yo'qotardi. Odatda go'ng-loyli va somon-loyli g'ishtlardan foydalanilgan. Ular erta bahordan, ko'pincha ayollar tomonidan tajribali ustalar boshchiligidagi tayyorlangan. Buning uchun suv manbai va qurilish maydoniga imkon qadar yaqin joy tanlangan. G'ishtning mustahkamligi uning to'g'ri tayyorlanishiga bevosita bog'liq edi.

Loy qorishmasi odamlar oyoqlari orqali sinchkovlik bilan qorilgan, ba'zida esa uning ustidan otlar podasini ham haydab o'tishgan. G'isht tarkibiga qum, somon va go'ng qat'iy tekshirilgan miqdorda kiritilishi shart edi. G'ishtdan foydalanish me'morchilikning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq edi. Zilzilalar tez-tez sodir bo'lgan Markaziy Osiyoning seysmik sharoitlari qurilishga alohida talablar qo'ydi. Ko'p asrlar



davomida bu yerda xom g'ishtdan bo'lgan bir va ikki qavatli binolar



qurilgan. Biroq ular tabiat ofatlari-ga bardosh bera olmas edi.

Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» kitobida, jumladan, turarjoylarni qurishda maydonning sof tuprog'i,

ga urganda jaranglagan tovush chiqardi. Bunday g'ishtlar asrlar davomida sinovdan o'tib kelgan. Buyuk Ipak yo'li shaharlarning o'sishiga, badavlat savdogarlar va



relefi katta ahamiyatga ega ekanligini tushuntiradi va aholi yashashi uchun quriladigan inshootlar kun-

amaldorlarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi. Ular uy-joylarini qurishda qimmatbaho materiallardan, jumladan, pishiq g'ishtdan foydalanishgan. Asta-sekin pishiq g'isht saroylar, hukmdorlar uylari va diniy inshootlarni qurishda qo'llanila boshladi.

Me'morchilikning asl gullab-yashnashi Amir Temur hukmronligi davriga to'g'ri keldi. Temuriylar davlatining poytaxti Samarqand bo'lgan va bu yerda me'morchilikning asosiy yodgorliklari qad rostlagan. Temur monumental qurilishga alohida ahamiyat berib, bunyodkorlik ishlariga zabt etilgan mamlakatlar ustalarini jalb qilgan. Mahalliy me'morlar bilan hamkorlikda qurilish texnikasiga yangiliklar joriy etilgan.

G'isht yasash san'ati o'sha yillarda yuksak darajaga ko'tarildi. Ayrim inshootlarda hatto me'morlarning nomlari ham saqlanib qolgan. Pishiq g'ishtning ishlab chiqarilishi «Temuriy g'ishti» atamasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Amir Temur uchun uning topshirig'iga ko'ra, bajarilgan me'moriy inshootlarning ulug'vorligi siyosiy rejaning asosiy vazifalaridan biri edi. Bu Oqsaroy portalidagi «Agar bizning qudratimizga ishonch hosil qilmoqchi bo'lsangiz, binolarimizga nazar tashlang!» degan yozuvda aks ettirilgan.

G'ayratulla SHUKUROV,
o'z muxbirimiz.



Shifokor mulohazasi

TABIATDA VA KO'NGILDA G'UBOR BO'LMASIN

ATROF-MUHIT VA SALOMATLIK

Inson salomatligining qariyb 20 foizi atrof-muhitning tozaligiga bog'liq. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi omil esa insoniyatning kamchiligi tufayli yuzaga kelmoqda.

Sog'liq haqida gap ketganda, eng avvalo, biz tabiat, xususan, tuproq, suv, havoning inson hayoti va salomatligini ta'minlovchi muhim omillar ekanligini chuqur anglashimiz lozim. Chunki biz tuproqda o'sib yetilgan ne'matlarni iste'mol qilamiz, suv bilan changqog'imizni qondiramiz, havodan nafas olamiz. Shu bois ularni turli chiqindilar bilan ifloslanishdan saqlashimiz kerak.

Aholi yashash joylaridagi suv ta'minotining tegishli sanitariya-gigiyenik talablariga javob berishi katta ahamiyatga ega. Suv manbalarini hojat va chiqindilardan ehtiyot qilish, yozgi mavsumlarda

faqat qaynatilgan suv iste'mol qilinishini ta'minlash, bolalarni bunga odatlantirish yuqumli kasalliklarning oldini oluvchi eng asosiy tadbirlardan biridir. Xo'jalik chiqindilari ichida hech bir chiqindi inson sog'lig'iga xavfi jihatidan kishi hojatiga teng kela olmaydi.

Shuning uchun biz kundalik turmushimizda hojatning xavfsizligini ta'min-

Buning uchun esa eng asosiy talab hojat bilan tuproq va suv manbalarining ifloslanishiga yo'l qo'ymaslikdir.

TURMUSHDA HOSIL BO'LADIGAN CHIQUINDILAR

Ma'lumki, inson va uning turmushida turli xil chiqindilar hosil bo'la-

chiqindilar, ovqat qoldirlari, hayvon chiqindilari, eskirgan buyum, idish va uy anjomlariga ajratish mumkin.

Kundalik turmushda hosil bo'ladigan chiqindilarni yig'ish, saqlash va zararsizlantirish borasida izchil ishlar olib borilmasa, ular hafta, oy va yillar davomida to'planib, insonlar sog'lig'iga jiddiy xavf keltiradi.

ATMOSFERANI IFLOSLANTIRUVCHI MANBALAR

Atmosfera havosini hozirda asosan ikki manba ifloslantiradi: birinchisi, tabiiy omillar bo'lsa, ikkinchisi, inson faoliyatining mahsuli hisoblanuvchi antropogen omillardir. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi tabiiy omillarga vulqonlarning otilib chiqishi, tog' jinslarining yemirilish, shamol vositasida to'zishi, o'rmonlarga o't ketib, undan paydo bo'ladigan zararli omillarning atrof-muhitga yoyilishi kabi tabiiy ofatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Industriyasi nihoyatda rivojlangan katta shaharlar va sanoat markazlarining atmosfera havosidagi chang, tutun, qurum va tumanlar ba'zi vaqtlarda osmonni qoplab turadi. Bu holat quyosh nurlarini to'sib qo'yib, uning yer yuziga yetarli miqdorda tushmasligi, o'z navbatida, turli kasalliklarni, ayniqsa, bolalarda raxit kasalligini keltirib chiqaradi.

Havoning doimo tutun, tuman bilan qoplanishi kishilarning asabiga, bemorlar kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holat shahar hududiga yorug'lik nurining yetarlicha tushmasligi, yashash joylari, maktablar, muassasalar va ish joylarida yorug'likning kam bo'lishiga olib keladi, natijada u o'qish va ish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

«Toza havo – tanga davo» degan hikmat hammaga ma'lum. Toza havo hisobiga tanada qon tozalanadi, teri erkin «nafas» oladi. Sof havo quyoshning issiq nurini o'zida saqlab qoladi, u yerga namlik beradi. Toza havo moddalar almashinuvi jarayoniga, tanamizdagi issiqlik almashinuvi hamda fiziologik jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Alisher IKROMOV,
Buxoro viloyati IIB
Tibbiyot bo'limi
boshlig'i, mayor.

Salomatlik saboqlari

KIVI – TABIIY KOLLAGEN

Po'sti och jigarrang tukchalar bilan qoplangan, mazasi shirin aralash nordon bo'lgan, mayda qora donchalarni o'z bag'riga olgan. Ushbu ta'rifdan gap nima haqida ketayotganini payqagan bo'lsangiz kerak. Bu kivi sitrus mevasi bo'lib, u sog'liq va go'zallik uchun juda foydali. Uning tarkibida oqsil, yog' va uglevodlar, C, E, K, PP hamda B guruhi vitaminlari mavjud. Shuningdek, bu meva kalsiy, kaliy, natriy, temir, yod, rux kabi minerallarga boy.

U shamollashga qarshi ta'sir ko'rsatib, isitmani tushirishga yordam beradi va immunitetni mustahkamlaydi. Shuningdek, yurak va qon tomirlari faoliyatini yaxshilab, qarish jarayonlarini sekinlashtiradi. Kivi temir tanqisligi anemiyasi va shish jarayonlari rivojlanishining oldini oladi.

Meva va sabzavotlar orasida kivi C vitamini ko'pligi bilan rekordchi hisoblanadi. Shu bois uni

shamollash va gripp mavsumida muntazam iste'mol qilish tavsiya etiladi. Kivi og'iz sohasini sog'lom saqlashga va tish emalini mustahkamlashga yordam beradi. Undagi mayda urug'lar ichak mushaklari faoliyatini rag'batlantiradi. Bundan tashqari, kivi ovqat hazmini yaxshilaydi, uyqu sifatini oshiradi, yurakni qo'llab-quvvatlaydi, vazn tashlashga yordam beradi va ko'zlar holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kivida u yoki bu moddaning miqdoriy tarkibi mevaning uzilgan vaqti va saqlanish sharoitiga qarab o'zgaradi. Shuningdek, u o'stirilgan hududning ekologik xususiyatlari va yetishtirishda ishlatilgan agrotexnika vositalari ham muhim ahamiyatga ega. Kivini shunchaki bo'laklarga bo'lib yeyish yoki turli shirinliklar ustini bezash, bo'tqa va salatlarga solish, smuzi tayyorlash,



mevali pyure tarkibiga qo'shish mumkin.

Kuniga 2 donadan yeyilgan kivi terida kollagen ishlab chiqishini kuchaytiradi. Bunga, asosan, terining barcha qatlamlariga osongina singadigan S vitamini yordam beradi. Ushbu meva epidermis yangilanishini tezlashtirib, ultrabinafsha

nurlardan himoyani kuchaytiradi.

Biroq ushbu mevaga nisbatan allergiya va yuqori sezuvchanlik kuzatilgan, oshqozon va to'g'ri ichagida yallig'lanish qayd etilgan kishilar uning iste'molidan tiyilgani ma'qul.

Dildora ISTAMOVA,
umumiy amaliyot
shifokori.

Yoshlar — kelajak bunyodkori

MANZILLI ISHLAR SAMARASI

Surxondaryo viloyatida yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash hamda jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1613 nafar yigit-qiz viloyat ichki ishlar organlarining 144 nafar rahbar xodimiga birlashtirilib, ular bilan manzilli ishlar olib borilmoqda.

Mazkur jarayonda birlashtirilgan yoshlarning barchasi atroflicha o'rganilib, anketa-so'rovnomalar to'ldirildi. O'rganishlar natijasida 878 nafar ishsiz yosh aniqlanib, ulardan 766 nafarining bandligi ta'minlandi. Shuningdek, kasb-hunarga ega bo'lmagan 64 nafar yigit-qizning 43 nafari kasbga o'qitilib, mehnat bozorida o'z o'rnini topishi uchun imkoniyat yaratildi.

Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash maqsadida 18 nafar yigit-qizga imtiyozli kreditlar ajratildi. Shu bilan birga, 443 nafar yoshning turli ijtimoiy-maishiy

muammolari hal etilib, ularga amaliy yordam ko'rsatildi.

O'taliqqa olingan yoshlar bilan ishlash jarayonida profilaktik hisobda turgan 433 nafar, probatsiya hisobida turgan 354 nafar yoshning muammolari chuqur o'rganilib, ularni hisobdan chiqarish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ko'rildi.

Rahbar xodimlarga birlashtirilgan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham muntazam

o'tkazib kelinyapti. Shuningdek, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan, agressiv xulq-atvoriga ega yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, jamiyatga moslashtirish maqsadida ularni turli madaniy va sport tadbirlariga jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, futbol va voleybol musobaqalari tashkil etilib, g'oliblar va faol ishtirokchilar munosib ravishda taqdirlanmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



Biz — korrupsiyaga qarshimiz!

HALOLLIK VAZIYATGA QARAB O'ZGARMAYDI

Giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi jamiyat xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi illatlar sirasiga kiradi. Bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishda esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining halolligi, pokligi va prinsipial pozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Yaqinda Ishtixon tumani-da giyohvandlik moddalarini sotish bilan shug'ullanib kelgan aka-uka Karim va To'rabek Murodovlar (ism-shariflar o'zgartirildi) iziga tushgan tezkor xodimlar ularni 10 gramm giyohvandlik moddasini sotayotgan vaqtda qo'lga olishdi.

Qo'lga olingan aka-uka jinoiy javobgarlikdan qochish, jazodan qutulib qolish

uchun ishni «bosdi-bosdi qilish» maqsadida tuman IIB rahbarlaridan biri — podpolkovnik O'lmas Rustamovga 2 ming AQSH dollari miqdorida pora taklif qiladi. Ammo rahbar o'z kasbiga, burchi va qasamyodiga sodiq qolib pora olishdan qat'iyan bosh tortdi.

Halollik lavozim yoki vaziyatga qarab o'zgarmaydi. Korrupsiyaga qarshi kura-

shishda qonuniylik mana shunday halol, sof vijdonli xodimlar orqali ta'minlanadi, ishda ijobiy samara beradi. Mazkur holat qonuniylikni ta'minlashda rahbarning qo'l ostidagi xodimlarga o'rnak bo'lganiga yaqqol misoldir.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Tergovni bilimdonlar olib boradi

DALILLARGA TAYANIB

Kogon tumani «Istiqbol» mahallasi Saroy qishlog'ida yashovchi X. Ruxshona (ismlari o'zgartirildi) viloyat IIBning «102» raqamiga qo'ng'iroq qilib, Kogon shahar hududida joylashgan «Ishonch» savdo majmuasi oldida lo'li millatiga mansub bo'lgan ayol uni aldab, qo'lidagi 2 dona tilla uzugi va bir juft sirg'asini olib ketganligini bildirgan.



Mazkur holat yuzasidan shahar IIB TQX JQB tezkor vakillari tomonidan olib borilgan tezkor qidiruv tadbirlari davomida mazkur jinoyatni Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida yashovchi, 2000-yilda tug'ilgan K. Dilovar sodir qilganligi aniqlanib, daliliy ashyolar xolislar ishtirokida hujjatlashtirib olindi. Tergov guruhi katta tergovchisi, mayor Eldor Qurbonov jinoyatni tergov qilishda har bir ishni sinchkovlik bilan ko'rib chiqdi.

— Mazkur holat yuzasidan olib borilgan dastlabki tergov harakatlari davomida gumonlanuvchi jabrlanuvchi o'z xohishi bilan tilla taqinchoqlarini berganini ro'kach qildi. Ammo u inson taqdirini o'yinchoq sanaganligi bois, uni har xil bo'lmag'ur safsataga ishonirib, ishonchini suiiste'mol qilganligi, qolaversa, gumonlanuvchi ikki marotaba ham aynan shu «kasbi» orqali sudlangani hamda jinoyat ishi taraflarning yarashganligi munosabati bilan tugatilganligidan o'ziga tegishli xulosa chiqarmasdan, yana qasddan jinoyat sodir etganligi inobatga olindi, — deydi mayor Eldor Qurbonov va qo'shib qo'ydi. — Keyingi paytlarda shahrimizda ana shunday firibgarlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatlar uchramoqda. Yakunlangan yil davomida o'ttizdan ortiq aynan firibgarlik bilan bog'liq ishlar qirq nafarga yaqin shaxslarga nisbatan tergov qilindi. Ular tomonidan yetkazilgan moddiy zararlarning undirilishiga ham e'tibor qaratyapmiz.

O'rni kelganda firibgar ayollarning yana biri xususida to'xtalib o'tsam. Muqaddam sudlangan bo'lishiga qaramasdan, navbatdagi firibgar ayol o'zini ijtimoiy tarmoqlarda «Trade-in» sohasida yuqori natijalarga erishgan shaxs sifatida ko'rsatib, «Forex» platformasi orqali pullarini ko'paytirib berishni va'da qiladi va fuqarolarning ishonchiga kiradi. Uning gapiga ishongan shaxslar avval oz-oz foyda ko'rib, keyin bor-budini va hattoki qarz olib ham pul tikishadi. Shu tariqa, 12 nafar shaxsning pullarini ko'paytirib berishga kelishgan bo'lsa, 4 nafar kishini ishga joylashtirishga va 2 nafar kishiga xayriya tariqasida uy hadya qilishini aytib, pullarini qo'lga kiritadi.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



Bizning suhbat

«TANQIDNI YASHIRMAYMIZ VA UNDAN QOCHMAYMIZ»

Urganch tumani IIB boshlig'i, podpolkovnik Jasurbek Raxmetov bilan suhbatlashib, o'tgan yili qaysi jinoyat turlari oshgani va ularning oldini olish bo'yicha bu yil qanday choralar ko'rilayotganini so'radik.

– Rasmiy statistikamizga ko'ra, asosan avto-transport vositalarida sodir etilayotgan o'g'irlik, firibgarlik jinoyatlari oshgan. Jumladan, avto-transport vositalarida sodir etilgan o'g'irliklar 12 taga, firibgarlik 7,1 foizga oshib, 28–30 ta holatni tashkil etdi. Shuningdek, so'nggi yillarda kiberjinoyatlar ham ko'paymoqda. Har bir jinoiy holat bo'yicha zudlik bilan tegishli choralar belgilanyapti. Hududini yetarlicha nazorat qilmagan profilaktika inspektorlariga nisbatan intizomiy chora ko'rilib, har bir salbiy holatning oldini olish bo'yicha aniq vazifalar yuklatildi.

Tahlillar o'g'irliklarning asosan tunda, qarovsiz qoldirilgan avtoulavlardan sodir etilganini ko'rsatdi. Shu bois shaxsiy tarkibning 50 foizi tungi xizmatga jalb etildi. Viktimologik profilaktika, ya'ni jabrlanish xavfi mavjud bo'lgan fuqarolarni oldindan aniqlash va ular jabrlanishining oldini olish choralari ko'rilib, fuqarolarning mol-mulkini xavfsiz saqlash maqsadida xonadon va savdo obyektlarini «qo'riqlov pulti»ga ulash ishlari kuchaytirildi. Mahallalarda videokuzatuv kameralarini o'rnatish nazoratga olindi.

Kiberjinoyatlarning oldini olish maqsadida ushbu jinoyat xavfidan ogohlantiruvchi maxsus videoroliklar tayyorlanib, mahallalar Telegram guruhlarida tarqatilmoqda.

– **Jinoyat sodir bo'lgandan keyin ko'rilgan choradan ko'ra, ularning oldini olishga e'tiborni kuchaytirish samarali bo'ladi. Shunday emasmi?**

– Albatta. Shuning uchun yil yakuni bo'yicha tumandagi 56 ta mahalladan 22 tasini tahlil qilib chiqdik. Ularning 3 tasi «qizil», 19 tasi «sariq» toifaga ajratildi. Qolganlari o'rganilmoqda. O'rganib chiqilgan har bir mahallaga mas'ul rahbarlar biriktirildi. Probatsiya hisobida turgan 281 nafar shaxs sodir etgan jinoyati bo'yicha tahlil qilindi. 72 nafari firibgarlik, 83 nafari oilaviy mojar bo'yicha sudlangani aniqlandi. Ular profilaktika inspektorlariga biriktirildi. 126 nafar og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha ro'yxatda turganlar esa tezkor xizmatlarga biriktirildi. Bundan tashqari, 520 nafar profilaktik nazoratdagi shaxs bilan individual ish olib borilmoqda. 366 ta notinch oila va 23 nafar tarbiyasi og'ir toifadagi yoshlar bilan ham alohida ishlash tizimli yo'lga qo'yilgan.

– **Profilaktika inspektorlari faoliyati yuzasidan e'tiroz va tanqidlar sizga yetib keladimi?**

– Har yakshanba kuni soat 10:00 dan 13:00 gacha shaxsan fuqarolarni qabul qilaman.



Fuqarolar orasida ular faoliyatidan norozi bo'lib shikoyat qilib kelayotganlari ham bor. Holatni o'rganib, xodim aybdor bo'lsa, tegishli chora ko'ryapmiz. Har bir murojaat bilan avval o'zim tanishib chiqaman va nazoratga olaman. Bu borada aniq tizim mavjud. Murojaat tushgan kundayoq mas'ul rahbar fuqaro bilan bog'lanadi, 3 soat ichida voqea joyiga chiqilib, holat o'rganiladi.

Bugungi kunda fuqarolar masofadan turib murojaat qilish imkoniga ega. Jamoatchilik kengashlari orqali nazorat kuchaytirildi. Rahbarlarning OAV va jamoatchilik oldida hisobot berish amaliyoti kengaydi. «Smart mahalla», «Mening inspektorim», «Mahalla – 24» tizimlari joriy etildi.

Asosiy maqsadimiz – xalq roziligi. Shuning uchun tanqidlarni yashirmaymiz va ulardan qochmaymiz.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Imij

YO'LDAGI FIDOYILAR

Yanvarning oxirgi o'n kunligi yaxshigina sovuq keldi. Bunday sharoitda asosiy harakat yo'nalishlari bo'lgan magistral yo'llarda yaxmalak, muzlama kuzatilib, avtomobillar tirbandligi hosil bo'ladi. M-39 yo'lining Jizzax dovoni shu bois vaqtincha yopildi. 22-yanvar tongida hududda paydo bo'lgan tirbandlikni bartaraf etishda yo'l-patrul xizmati xodimlarining hissasi katta bo'ldi.



Shu kuni 6:00da viloyat IIB JXX YHXB YPX batalyonining 2-safarbarlik guruhi katta inspektori, katta serjant Jasur To'rayev va 4-safarbarlik guruhi inspektori, safdor Ixtiyor Shodmonov D-050 avtomobil yo'lining G'alla-rol-Jizzax yo'nalishida xizmatga kirishdi. Ob-havo sharoiti sabab tirbandlik hosil bo'la boshlaganida xodimlar navbatma-navbat yuk mashinalari g'ildiraklari ostiga qum-shag'al aralashmasini sepa boshlashdi. Natijada avtomobillarning maromiy yurishi ta'minlandi, harakat siljidi.

Yo'l-patrul xizmati xodimlarining o'z vazifasidan tashqari, yo'lchilarning ishini ham beminnat bajarayotgani aks etgan video ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgach, bu jamoatchilik orasida ijobiy fikr uyg'otdi. Ushbu fidoyilik e'tiborsiz qolmadi. Shu kuni kechgacha o'z postida qolgan xodimlarga viloyat hokimi nomidan minnatdorlik bildirilib, qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

– Sohada 16 yildan buyon xizmat qilaman. O'sha kuni avtoyo'l ishchilari biz xizmat olib borayotgan hududda emasdi. Vaziyatni yaxshilash maqsadida amalga oshirgan ishimiz shu qadar e'tirof etilganidan mamnunmiz. Har bir kasbdoshim bunday sharafiga loyiq, – deydi katta serjant Jasur To'rayev.

Fidoyilik uning qonida bor, desak, yanglishmaymiz. Otasi O'ktam To'rayev uzoq yillar shu sohada xizmat qilib, qadr topgan xodim. Ayni vaqtda O'ktam To'rayev Jizzax viloyati IIB JXX YHXB Faxriylar kengashi raisi. Yosh mutaxassislarning kasbga muhabbati, xalqparvarligini oshirishda kamarbasta. Suhbatimiz yakunida katta serjant Jasur To'rayev viloyat hokimi sovg'asini otasiga topshirganini mamnuniyat bilan qayd etdi va xizmatni davom ettirishga kirishdi.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Bugun hayotimizdan chuqur o'rin olgan turli gadjetlar, xususan, uyali telefonlar qulaylik yaratish bilan birga, ayrim salbiy holatlarning kelib chiqishida muhim vositaga aylanmoqda. Jumladan, ayrim kimsalar ulardan foydalangan holda, aldov yo'li bilan o'zgarar mablag'ini qo'lga kiritishga urinmoqda.

Shunday holatlardan biri Ko'son tumanida kuzatildi. Yoshli ellikka yaqinlashib qolgan Abdi Tohirov (ism-shariflar o'zgartirildi) qasddan firibgarlik jinoyatini sodir etdi. U bunda jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi hukmiga ko'ra jazo o'tab, probatsiya guruhida nazoratda turgan hamshahri U.K.ning ishonuvchanligidan foydalandi. Gap shundaki, A.Tohirov U.K.ga qo'ng'iroq qilib, o'zini probatsiya xizmati inspektori sifatida tanishtiradi va uning ishonchini qozonadi. So'ng go'yoki do-

«SHOH SOXTA EKAN...»

kondan ikki yuz ming so'mdan ortiq qarzi borligini aytib, ushbu mablag'ni undan undiradi. Shu bilan cheklanmay, yana qo'ng'iroq qilib, uyali telefon raqamiga yuz ming so'm, bank plastik kartasiga yana yuz ming so'm pul o'tkazdirib oladi.

Keyinchalik haqiqiy probatsiya xizmati xodimi bilan uchrashgan U.K. unga qo'ng'iroq qilgan shaxs firibgar ekanini bilib, ichki ishlar organiga murojaat qildi. Olib borilgan tergov harakatlari davomida A.Tohirovning noqonuniy xatti-harakatlari fosh etildi. Holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan, hozir tergov harakatlari olib borilyapti.

Ta'kidlash joizki, keyingi paytda firibgarlar davlat idorasi, bank yoki huquq-tartibot organi xodimi nomidan qo'ng'iroq qilib, odamlarning ishonuvchanligidan foydalanmoqda. Shu bois har qanday shubhali qo'ng'iroq yoki xabarga nisbatan beparvolikka yo'l qo'y-maslik, o'zini mansabdor shaxs deb tanishtirgan kimsaning so'zlarini, albatta, tekshirish lozim.

Unutmaslik kerak: hech qaysi mansabdor shaxs, hech qaysi davlat idorasi yoki bank xodimi telefon orqali pul talab qilmaydi. Agar kimdir o'zini rasmiy shaxs sifatida tanishtirib, mablag' so'rayotgan bo'lsa, bu – xavf qo'ng'iroq'idir.

Qudrat MO'MINOV,
podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati.



QADRI QIMMATGA TUSHSA...

Internet yordamida xarid hamda to'lovlarni onlayn tarzda amalga oshirish kundalik hayotimizda qimmatli vaqtimizni tejayotgani bor gap. Halol mehnati ortidan topgan pullarini «uddaburon»larga, aniqrog'i, firibgarlarga o'z qo'llari bilan birgina tugmachani bosish orqali boy berayotganlar yo'q emas. Hatto oramizda davlat tashkilotlari nomidan chiqish qilib, fuqarolarni firibgarlik yo'li bilan aldashdan tap tortmaydiganlar ham bor. Bunday vaziyatlar beixtiyor ko'pchiligimizda vaqtning qadri qimmatga tushyapti-ku, degan savolnamo taajjub uyg'otayotgani rost.

– Tezkor-qidiruv tadbiri davomida Telegram va Instagram ijtimoiy tarmoqlarida Davlat bojxona qo'mitasi nomidan soxta kanal va guruhlar ochib, fuqarolarning pul mablag'larini o'zlashtirib kelgan jinoiy guruh faoliyati fosh etilib, uning a'zolari qo'lga olindi, – deydi Toshkent viloyati IIBB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari, mayor Salohiddin Abduqahhorov. – Surishtiruvlarga ko'ra, Andijon viloyatida yashovchi 5 nafar shaxs jinoiy reja tuzib, Telegram va Instagram ijtimoiy tarmoqlarida Davlat bojxona qo'mitasi nomidan «Musodara tovarlar» va «Optom sklad» nomlari ostida kanal va guruhlar tashkil etgan. Shuningdek, guruhlarda «Bojxona qo'mitasi admini», «Ishonch siz bilan» kabi o'nga yaqin soxta akkauntlar orqali o'zlarini go'yoki tizim xodimlari sifatida tanishtirgan. Aslida mavjud bo'lmagan muzlatkich, televizorlar, isitish qozonlari, oshxona va bolalar mebellari, turli gadjetlar, jumladan iPhone telefonining so'nggi modellari hamda kiyim-kechaklarni juda arzon narxlarda taklif qilib, yetkazib berishni ta'kidlashgan. To'lovlarning ma'lum qismini esa o'zgalarning nomiga rasmiylashtirilgan bank kartalari orqali qabul qilishgan. Natijada jinoiy guruh a'zolari dastlabki tergovga qadar jami 60 nafar fuqaroning ishonchiga kirib, firibgarlik yo'li bilan 117 million so'm pul mablag'larini o'zlashtirgani, bu pullarni shaxsiy ehtiyojlari uchun sarflab yuborgani aniqlangan. Mahsulotni talab qilgan yoki qayta aloqaga chiqqan jabrlanuvchilar esa javobsiz qoldirilib, ijtimoiy tarmoqlarda «qora ro'yxat»ga kiritilgan.

Hozirda mazkur holat yuzasidan jinoiy guruh a'zolariga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilib, «qamoq» ehtiyot chorasi qo'llanilgan. Tergov harakatlari davom ettirilib, fuqarolarga yetkazilgan moddiy zararlarni qoplash choralari ko'rilmoqda.

Viloyat IIBB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi mutaxassislari boshqa sohaviy xizmatlar xodimlari bilan

hamkorlikda aynan kibermakonda sodir bo'layotgan yuqoridagi singari qator qing'irliklarni fosh etishmoqda. Bunday holatlarning oldini olish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Biroq insoniyatning, ijtimoiy tarmoqlardagi imkoniyatlari ortgani sayin, kiberjinoyatlar salmog'i ham sezilarli darajada ko'payib bormoqda. Bu jarayonda inson omili, aniqrog'i, kimlarningdir tez va oson mo'may daromad orttirish maqsadidagi «xaker»ligi juda xavflidir.

So'nggi yillarda axborot texnologiyalari sohasida qayd etilgan jinoyatlar sonini Toshkent viloyati mi-solida tahlil qilib ko'rsak, o'tgan yil davomida ayni jinoyat va huquqbuzarliklar yuzasidan 16 137 ta murojaat kelib tushgan. Murojaatlarning 45 foizi o'g'rilik, 52 foizi firibgarlik jinoyatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlar ekanligi ham oson yo'l bilan daromad orttirishni maqsad qilganlarning qora qil-mishlarini dalillaydi.

Shuningdek, o'tgan yilda internet tarmoqlarini monitoring qilish davomida giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar savdosi bo'yicha 518 ta, pornografiya bo'yicha 459 ta, shaf-qatsizlik va zo'ravonlik bilan bog'liq holatlar bo'yicha 311 ta, qimor va tavakkalchilikka asoslangan o'yin-larni targ'ib qilish bo'yicha bir qator kanal va saytlar aniqlanib bloklangan.

Bugun kybersavodxonlik xususida so'z yuritgan-da, gapni «eskirib» ulgurmagan firibgarlik holatlari bilan boshlayotganimiz hech birimizga sir emas. Bu axborot texnologiyalari olamidagi yangilanishlar soyasida tobora kiberjinoyatlarning ham yangicha ko'rinishi paydo bo'layotganidan dalolatdir. Shunday ekan, kibermakonda ishonchli ma'lumotlarga quloq tuting, ko'nglingizda biroz shubha, gumon uyg'otgan jihatga, albatta, hushyorlikni oshirib, ogohlik bilan nazar soling.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

15-бетага жумбоқнинг жавоби: устоиза тахриротида (эина) пастда таърирланган.

Kelajakni bugun ko'rayotgan avlod

Bolaning o'zligini topishi turli faoliyat jarayonida shakllanib boradi. Ularning faoliyati juda maroqli, o'ziga xos go'zal va shakl jihatidan rang-barangdir. Fazilatlar bolalar uchun xos bo'lgan doimiy ehtiyojga aylangandagina ulardagi faollik yanada ortadi. Maroqli va ma'naviy zavq beruvchi ana shu go'zal faoliyat bolalar ijodiyotida ayniqsa ko'zga tashlanadi.

Go'zal tarbiya esa endigina qaddini tiklayotgan nihol bolajonlarimizning kelgusi hayotini belgilab beradigan asosiy omildir. Tarbiya ta'siri, yo'nalishi qay tomon bo'lsa, bola o'sha tomon intilaveradi.

Biz chop etayotgan rasmlar ijodkorlari nafaqat oilada, shuning barobarida ilm dargohlarida ham keksalarga beqiyos hurmat, o'zaro mehr-oqibat, ona Vatanni sevish, ardoqlash va ko'z qorachig'idek asrash ruhida o'sayotgan ajoyib avlod vakillaridir.

Jajji yuragingizdagi musaffo tuyg'ular hamisha bor bo'lsin, aziz bolajonlar!

IIV Ixtisoslashgan maktab-internati 9^a-sinf o'quvchisi Sarvar Rajabovning «Seni asragaymiz, Vatan!» nomli rasmi.



IIV Ixtisoslashgan maktab-internati 6^g-sinf o'quvchisi Shohjahon Sobirjonovning «Fidoyilik» nomli rasmi.



IIV Ixtisoslashgan maktab-internati 7^b-sinf o'quvchisi Ar-Rahmon Shokirovning «Chegarachilar» nomli rasmi.



Gazetamizning elektron variantini ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(2 – 8 февраль)

Қўй (21.03 – 20.04). Хафтанинг илк кунлари деярли ҳар жабҳада сизга омад кулиб боқади. Бу вақт ичида яхшигина даромадга эга бўлишингиз мумкин. Атрофдагиларга яхши кайфият улашинг, бошига ташвиш тушганларни қўллаб-қувватланг.

Бузоқ (21.04 – 20.05). Бу даврда саломатликка жиддий эътибор қаратинг. Пайшанба куни яхши хабар оласиз. Ўзингизни қийнаётган масалалар бўйича яқинларингиздан маслаҳат олинг. Ҳафта сўнгида мириқиб дам олиш учун вақт ажратинг.

Эгизаклар (21.05 – 21.06). Бу вақтда молиявий масалаларда тежамкор бўлиб, кутилмаган харидлардан ўзингизни тийишга ҳаракат қилинг. Анчадан бери умид боғлаган ва рўёбини кутган ниятингиз амалга ошади. Режадаги барча ишлар осон ва енгил ҳал бўлиб, ҳамкасблар билан ўзаро муносабатлар мустаҳкамланади.

Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Бу кунларда имкон қадар ишсиз ўтирманг, чунки келаётган ҳафта моддий ҳолатни анчайин яхшилаб олиш учун барча имкониятларни тақдим этади. Шанба куни (айниқса, нотаниш инсонларга нисбатан) ўта ишонувчанлик сизга панд беради. Якшанба ҳар жабҳада ижобий натижаларни ваъда қилмоқда.

Арслон (23.07 – 23.08). Сиз кўнгли жуда таъсирчан ва ҳис-туйғуларга берилган инсонсиз. Шу сабабдан руҳий ҳолатингизда салбий ўзгаришлар юзага келиши мумкин. Тушкунликка берилган ёки хаста инсонларга ижобий таъсир кўрсатиб, ҳаётга бўлган қизиқиши ва умидини орттиришга ҳаракат қилинг.

Паризод (24.08 – 23.09). Сиз учун ҳам руҳан, ҳам жисмонан енгиллашиш вақти етди. Табиат кўйида кўпроқ дам олишга эътибор қаратинг. Бироқ хордиқ учун ортиқча сарф-харажат қилманг, чунки бу даврда молиявий жиҳатдан бироз қийинчилик юзага келиши мумкин.

Тарози (24.09 – 23.10). Бу даврда кайфиятингиз кўтаринки кечиши кутилмоқда. Қандай ишга қўл урманг, албатта, бароридан келади. Ушбу ҳафта давомида амалга оширилган саъй-ҳаракатлар келажак режаларини пухталаб олишда асқатади. Руҳан тетиклик сизни ҳафта давомида тарк этмайди.

Чаён (24.10 – 22.11). Душанба ва се-шанба шахсий ҳаётга эътибор қаратиш учун қулай палла. Кейинги кунлар одатдагидек бир хилда ва зерикарли ўтиши, на яхши, на ёмон хабар улашмаслиги кутилмоқда. Ҳафта сўнги оғир келади, шунинг учун меъёрдан ортиқ ғайрат билан ҳаракат қилмасликка урининг.

Ўқотар (23.11 – 21.12). Айни дам ҳаётингизда унумли ва жадал ривожланиш жараёни кетмоқда. Эски қарашларни ўтмишда қолдиринг. Танқидни холислик билан қабул қилинг ва хатоларни тузатиб кетишга ўрганинг. Натижали ишларни яқинларингиз билан келишиб амалга оширинг.

Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Ушбу ҳафта давомида дўстлар ва оила аъзолари ўртасида танлов қилишга тўғри келади. Бу борада имкон қадар хушмуомала ва қатъий бўлинг. Табиийки, танлов яқинларингиз фойдасига бўлиши зарур.

Қовға (21.01 – 19.02). Душанба куни пуллик бонуслар олишингиз эҳтимоли юқори. Молиявий масалада тежамкор бўлишга ҳаракат қилинг. Чоршанба куни янги танишлар орттирилиши, фойдали алоқалар ўрнатилиши кутилмоқда. Оилавий муаммоларни ҳал этиш ҳаракатини ҳафтанинг иккинчи ярмига қолдирганингиз маъқул.

Балиқ (20.02 – 20.03). Сиз ҳатто энг камгап ва феъли оғир инсонлар билан ҳам тил топиша оласиз. Ушбу жиҳатдан фойдаланган ҳолда, ҳар қандай муаммо ва низоларни ҳал қилиш учун мазкур ҳафта кунлари айтилган муддаодир. Бу даврда ҳам шахсий масалалар, ҳам иш юзасидан кўп жойларда бўлишингиз кутилмоқда. Фақат орада дам олишни ва саломатликка эътибор қаратишни унутиб қўйманг.

Shaxsiy fikr

«BILMAM, ADASHDIMMI
YO TO'G'RI QILDIM»

Sarlavhani ko'riboq, hoynahoy, O'zbekiston xalq artisti Zamira Suyunova ijrosida yangragan va muxlislar qalbidan muqim joy egallagan mashhur qo'shiq haqidagi maqolani o'qisam kerak, deb o'ylagandirsiz. Nafsilamrini aytganda, ma'naviy olamni boyitishda milliy qo'shiqlarimizning ham o'z o'ri bor. Biroq hozir gap bilib yo bilmay, balki adashgan holda, ma'naviyatning yuksalishiga berilayotgan «zarbalar» haqida. Yana-da aniqrog'i, so'z mas'uliyati, aytayotgan axborotimiz, bildirayotgan fikrimiz ma'naviyat daraxtining ildiziga bolta bo'lib tushmasligi haqida.

«FAUST»NI KIM YOZGAN?

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlardan birida «A» harfi bilan boshlanadigan 5 ta davlatni sanab bering» degan savolning javobini eshitib, ko'zlarimga ishonmadim. Axir «Avstraliya, Amerika, Antarktida, Azarbayjon, Amsterdam» deb javob bergan respondent unchamuncha odam emas, naq millionlab obunachisiga va undan ham bir necha bor ko'proq kuzatuvchisiga ega mashhur vayner edi-da...

Javobdan so'ng paydo bo'lgan birinchi savol shu bo'ldiki, nahotki oliy ma'lumotli aktyor va rejissyor bo'lgan bu inson Antarktidaning qit'a, Amsterdam esa shahar ekanini, qolaversa, o'zbek tilida «Azarbayjan» emas, «Ozarbayjon» deyilishini bilmasa... Axir bu farqlarni jo'g'rofiyadan jilla bo'lsin xabari bor har qanday kishi yaxshi biladi-ku...

Boringki, endi bu odam bir vayn qilibdi-da, deb yuqoridagi holatga ko'z yumdik ham deylik. Lekin o'zining jurnalistika sohasi bo'yicha magistrlik diplomi borligini, o'zni bo'lsa-bo'lmasa, tiqishtiradigan, ham diniy, ham dunyoviy ilmi bor odam ko'zingizga tik qarab turib noto'g'ri axborot aytsa-chi?

Tan olaman, men ijtimoiy tarmoqda faol emasman. Biroq ba'zan shunday axborotlarga duch kelganimga azbaroyi andisha qilaman. Hozirgacha odamlar blogermi, jurnalistmi, diniy ulamomi yo olimlikka da'vogarmi ekanini bilolmayotgan bu akaxonimiz o'zining navbatdagi da'vosi bilan internetni «portlatdi». Emishki, dunyoga mashhur «Faust»ni Gyote emas, Geyne yozgan ekan. Yana u janobning ma'ruzalarini tinglab o'tirgan izdihomga, jumladan, biz kuzatuvchilarga qarata «Siz «Faust»ni o'qimagansiz, shuning uchun uni yozgan Geyneni ham bilmaysiz», deyishiga o'lasizmi?

Ehtimol «jahon adabiyotining bilimdoni» suhbatidan bahramand bo'lganlar orasida yo'q bo'lsa bordir, lekin uni ijtimoiy

tarmoqda ko'rganlar orasida ulug' nemis shoiri Gyotening mashhur asarini asliyatda o'qimagan bo'lsa-da, dilbar shoirimiz Erkin Vohidov tarjimasidagi «Faust»ni o'qiganlar ming-minglab ekani bu janobning xayoliga ham kelmagan-ov...

«Qovun tushirish» borasida deputatlarimiz bilan bemalol bellashadigan bu domlajon yaqinda yana bir bor «xol qo'ydi». Emishki, uning muxlislaridan biri Dostoyevskiyning «Aqllilik balosi» haqidagi ma'ruzalaridan masrurlanib, uni davom ettirishni so'ragan. Menimcha, «badiiy tilda» gapirishini har suhbatida qayta-qayta takror etadigan, tilimizda «badiiy til» tushunchasi yo'qligini, balki «adabiy til» va «badiiy asar tili» tushunchalari mavjudligini bilmaydigan magistr janoblari «Aqllilik balosi» Dostoyevskiyning asari emas, balki Aleksandr Griboyedov qalamiga mansubligini ham bilmasa kerak.

«SAMARQANDGA
BORSAM MEN AGAR...»

Yuqoridagi fikrlar ijtimoiy tarmoq atrofida bo'lgani uchun biroz bahsli bo'lishi mumkin. Chunki undagi axborotlar tahlil qilinmaydi, nazoratga olinmaydi va to'g'ridan-to'g'ri tarqatiladi. Lekin televideniye-chi? U ham nazorat doirasidan chiqib ketdimi? Televideniye-dan tarqatiladigan axborot aholining ongini o'zgartiradigan darajada qudratga egaligi unut bo'ldimi?

Bejiz bunday deyaotganimiz yo'q. Aytish joizki, «Madaniyat va ma'rifat» telekanali eng sevimli dasturlarni namoyish etadigan, shu bilan xalqimiz ma'naviyatini boyitadigan, ma'rifiy o'sishiga xizmat qiladigan kanallardan biri. Biroq ayrim ko'rsatuvlarni ko'rganda, fikrimiz teskari tomonga o'zgarib ketganini o'zimiz ham bilmay qolamiz.

«Qaqnus» xuddi shunday ma'rifiy ko'rsatuvlardan biri. Uning boshlovchidan tortib, mehmonlarigacha she'riyat ixlosmandlari qalbidan muqim joy olib ulurgani ham bor gap. Biroq shunday suhbatlardan biriga taklif etilgan shoir va adabiyotshunos olimning Muhammad Yusuf qalamiga mansub «Samarqandga borsam men agar» degan mashhur she'rini Xurshid Davron asari deb taqdim etsa, nima deyishni ham bilmay qolarkansiz...

«RAVSHAN» TARIXIY ASARMI?


«Siz efirdasiz» dasturi «Madaniyat va ma'rifat» telekanalining eng ommabop ko'rsatuvlaridan biri. Uni mamlakatimizning 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan aholisi ko'radi, desam, lof emas. Chunki unda ishtirok etuvchilar orasida boshlang'ich sinf o'quvchilari ham, piri badavlat otaxon-u onaxonlar ham borligiga ko'p bor guvoh bo'lganman. Shuning uchun ham bunday keng auditoriyaga ega ko'rsatuvda yangragan axborot atomdan kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham ommaga taqdim etilayotgan har qanday ma'lumot ming bir chig'iridan o'tishi kerak. O'zimiz bilmagan ma'lumot yoki to'g'ri deb bilgan xato xalqni chalg'itishi, noto'g'ri xulosaga olib kelishi mumkin.

Fikrlarim quruq bo'lib qolmasligi uchun birgina misol keltirsam. Mazkur ko'rsatuv boshlovchisi savolni o'qib eshittirarkan, sovrin uchun qo'yilgan kitobni e'lon qildi. Uning aytishicha, g'olibga «Ravshan» tarixiy asari nasib etarkan. Kamiga qo'shib qo'ydi: «Mana, kitobning muqovasiga «Xalq og'zaki ijodi» deb yozilgan ekan. Demak, bu kitob tarixiy roman». Men-ku millionlab muxlislar qatori, uni eshityapman, lekin u mening «dod» deb yuborganimni eshitdimikan?!

XULOSA O'RNIDA

E'tibor qilgan bo'lsangiz, biz hech bir «qahramonimiz»ning ism-sharifini keltirmadik. Chunki maqsadimiz kimnidir yomonotliq qilish emas. Aksincha, hamkasblarimizni, jumladan, so'z bilan ishlaydigan barcha-barchani so'z mas'uliyatini his qilishga chaqirish. Toki, biz taqdim etadigan ma'lumot, yetkazadigan axborot yoki bildirayotgan fikrimiz, adashibmi yo bilib-bilmagan holda, ma'naviyat daraxtining ildiziga bolta bo'lib tushmasin!

Temir QURBON.



Voleybol

ISLOHOTLAR – YUTUQLARIMIZDA NAMOYON

Kuni kecha Osiyo Olimpiya kengashining 46-Bosh assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Osiyo voleybol konfederatsiyasi prezidenti Ramon Suzaraning Respublika Sport vaziri Adham Ikromov, Ichki ishlar vaziri, O'zbekiston voleybol federatsiyasi raisi Aziz Tashpulatov hamda Osiyo voleybol konfederatsiyasi prezidenti Ramon Suzara boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.



Uchrashuv davomida mamlakatimizda voleybol sport turini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, sportchilar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida xorijiy mehmonlarga batafsil ma'lumot berildi.

Shuningdek, mazkur sport turini yoshlar orasida ommalashtirish, professional sportchilarning tayyorgarlik jarayonlarini xorij tajribasi asosida takomillashtirish, murabbiy va hakamlar ishtirokida turli seminar va tadbirlar tashkil etish masalalari ham muhokama qilindi.

OVK prezidenti janob Ramon Suzara Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonda sport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uning natijalari musobaqalardagi yutuqlar orqali yaqqol namoyon bo'layotganini alohida e'tirof etdi.

Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasida Voleybol bo'yicha erkaklar o'rtasida O'zbekiston chempionati — Oliy liga bahslarining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Anjumanda so'z olganlar so'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan sportga berilayotgan e'tibor, Olimpiya o'yinlari tarkibiga kiritilgan jamoaviy sport turlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga alohida to'xtalib o'tishdi. Ayniqsa, voleybolning yoshlar orasida yanada ommalashayotgani xalqaro sport tashkilotlarining ham e'tirofiga sabab bo'layotganligi ta'kidlandi. Osiyo voleybol

konfederatsiyasi prezidenti Ramon Suzaraning ushbu marosimdagi ishtiroki esa musobaqaning nufuzi va xalqaro miqyosdagi ahamiyatini yanada oshirdi.

Ushbu musobaqa 2026-yilgi voleybol mavsumining ilk va eng muhim turniri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Musobaqa o'yinlari Olimpiya shaharchasi jamoaviy sport turlari zali hamda «Jar» sport-sog'lomlashtirish markazida o'tkazilmoqda.

Jamoalar o'rtasida qur'a tashlash marosimi o'tkazilib, 17 jamoa 4 guruhga bo'lingan holda 22-yanvardan rasmiy uchrashuvlar start oldi.

Voleybol bo'yicha O'zbekiston chempionati 29-yanvarga qadar davom etadi.



Donishmandlik faslida

DAXLDORLIK HISSI BILAN

2015-yil pensiyaga kuzatilgach, iste'fodagi mayor Mansur Ismoilov, otasi istaganidek, pedagoglik sohasining nonini totib ko'rdi. Salom bobo uzoq yillar Forishning «Olimlar qishlog'i» deb nom chiqargan Garashasidagi maktabda matematika fanidan dars bergan fidoyi o'qituvchi edi. O'g'li Mansurjon ichki ishlar organi xodimi bo'lish orzusida ekanini bilib, yo'lini to'smagan, ammo ich-ichidan uning ham o'qituvchi bo'lishini istagan edi.

Mansur Ismoilov sohada 19 yillik faoliyatidan so'ng IIV Jizzax akademik litseyida o'quvchilarga kasbiy fanlardan saboq berdi. Bunda uning qo'riqlash va kadrlar bilan ishlash xizmatlarida, Forish tumani IIB boshlig'i o'rinbosari, vaqtincha saqlash hibsxonasi boshlig'i lavozimlarida ishlab o'ttirgan boy tajribasi, chuqur bilimi va kasbiy mahorati qo'l keldi. Bo'lg'usi xodimlarga sohaning asosiy faoliyat yo'nalishlarini o'rgatishda jonbozlik ko'rsatdi.

– Litsey o'quvchilari menga tez-tez murojaat qilib turishadi, – deydi Mansur Ismoilov. – Ko'p yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilgan faxriy xodim sifatida ular mendan IIV ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun nimalarga e'tibor qaratish lo-



zimligi, haqiqiy soha xodimi qanday bo'lishi kerakligi haqida maslahatlar so'rashadi. Men ularga ko'proq kitob o'qish kerakligi, ma'nan va jismonan sog'lom, eng muhimi, o'z kasbiga fidoyi inson bo'lishi kerakligini uqtiraman. O'z tajribamdan kelib chiqib, yoshlarga vatanparvarlik va intizom faoliyatning bosh mezonini ekanligi bo'yicha doimiy yo'l-yo'riqlar ko'rsatib kelaman.

Ayni kunda lavhamiz qahramoni litseyning kadrlar bilan ta'minlash guruhi katta inspektori bo'lib ishlamoqda. Umuman, uning keyingi 7 yillik faoliyati shu dargoh bilan bog'liq. Qaysi vazifada mehnat qilmasin, yillar davomida toblangan intizomi, fidoyiligi va boshqa kasbiy sifatleri yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ham faol. Qisqasi, uning ta'lim dargohidagi har bir kuni bo'lg'usi osoyish-talik posbonlarining har tomonlama yetuk bo'lishlari uchun baxshida.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati

Suratda: iste'fodagi mayor Mansur Ismoilov litseyning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, podpolkovnik Allamurod Isamurodov bilan kitob taqdimoti oldidan fikr almashmoqda.

Abu KENJAYEV olgan surat.



«JADIDLARIM»

Mamlakatimizda *jadid bobolarimiz xotirasiga bo'lgan e'tibor jamiyat hayotida muhim ijtimoiy-ma'naviy jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu nafaqat tarixiy xotirani tiklash, balki milliy taraqqiyotning ma'naviy poydevorini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Jadidlar qoldirgan merosdan taralayotgan ma'rifat ziyosi erkin fikr, tanqidiy tafakkur, ijod va ma'naviy uyg'onish uchun keng imkoniyatlar ochib, jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallamoqda.*

Ayniqsa, san'at va adabiyot sohasida jadidlar g'oyalari zamonaviy ruhda qayta jonlanmoqda. Ana shunday ijodiy izlanishlar mevasi sifatida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Jahongir Poziljonovning «Jadidlarim» qo'shig'ini alohida ta'kidlash o'rinli. Mazkur qo'shiq mamlakatimizda

amalga oshirilayotgan islohotlar va ma'naviy olamimizdagi ijobiy o'zgarishlar bilan hamohang holda yaratilgan ijod mahsuli sifatida jamoatchilik e'tiborini tortdi.

Qo'shiq tinglovchi hukmiga havola etilganidan so'ng uning tug'ilish jarayoniga oid savollar ham tabiiy ravishda paydo bo'ldi. Asosan estrada yo'nalishida ijod qilib kelayotgan xonandaning tarixiy va ma'rifiy mavzuda qo'shiq kuylashi ayrimlar uchun kutilmagan yangilik edi. Biroq asarning yaratilish tarixi bu qaror tasodifiy emasligini yaqqol ko'rsatadi.

— Ko'nglimdagi g'oyani bastakor Ulug'bek Yo'ldiyevga tushuntirganimda, uning ham qalbida vatanparvarlik tuyg'ulari jo'sh urib ketdi va darhol ishga kirishdi. Shundan so'ng Ulug'bek Yo'ldiyev, men va oranjirovkachi Axliyor Azimov birgalikda o'sha kunning o'zidayoq qo'shiqni yozib oldik. Ertasi kuni

klipmeykerlar Hasan va Husan Atabayevlar bilan fikr almashib, qisqa vaqt ichida qo'shiq uchun videoklip ham tayyorlandi. Uchinchi kuni esa klipning premyerasi bo'lib o'tdi, — deya ta'kidladi xonanda Jahongir Poziljonov bizga bergan intervyusida.

Natija kutilgandek bo'ldi. Qo'shiq keng jamoatchilik tomonidan samimiy qabul qilinib, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilindi. U nafaqat musiqiy asar, balki ma'naviy da'vat, tarixiy xotiraga ehtirom va ruhiy uyg'onish ramzi sifatida baholandi.

Xulosa qilib aytganda, «Jadidlarim» qo'shig'i orqali jadidlar ruhi yangi avlod qalbiga kirib borib, Vatanga muhabbat, fidoyilik va tarixiy xotira tuyg'ularini mustahkamlamoqda.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

*Bu Vatanni onamdan kam sevsam uyat bo'ladi,
Bu Vatanni bolamdan kam sevsam uyat bo'ladi.
Qancha dunyo kezdim, yorishmadi baribir,
Mening yarim ko'nglim faqat shu Vatanda to'ladi.*

*O'zbeklarning bu dunyoga aytar gapi ko'p hali,
Jadidlarning yoqqan chirog'i o'chgani yo'q hali,
O'zbekiston, har bir qarich yeringni qani men ham
Sevolsaydim o'sha mening jadidlarim singari.*


*Cho'lpon ekan niholdan bo'stonlarim bor mening,
Usmon Nosirdan qolgan dostonlarim bor mening,
Mahmudxo'ja Behbudiy maktablarim bor mening,
Elim uchun jon bergan jadidlarim bor mening.*

*Qurbon bo'lib ketgan bizning qancha sharaf-shonimiz,
Ma'rifatga fido bo'lsa bo'lsin deya jonimiz.
Yurtboshimizning yoshlarga aytgan gapini eslang:
— Jadidchilar bo'ladi bizning qahramonimiz.*

*Bugun O'zbekiston har tomonlama kuch-u qudratga ega,
Har tomonlama himoya qiloladi O'zbekiston o'zini,
Haddingni bil, fitnachi, bu yurtni yomonlama,
Bugun O'zbekiston o'z so'zini ayta oladi,
Butun dunyo maydonida maqsad sari boradi.
Sportda, ilm-u fanda — har sohada bemaol
Butun dunyo maydonida raqobatlasha oladi.*



Bilarmidingiz?



Isaak Nyutonning mashhur uch qonunini har birimiz maktabda, fizika darsida yod

olganmiz. Buyuk ingliz olimining ixtirolarini aslo kamsitmagan holda, o'z davrida bizning ulug' ajdodlarimiz G'arb olimlaridan ancha ilgari juda ko'p narsaga oydinlik kiritib ketganini ham bilib qo'ysak va boshqalarga ham eslatsak nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Nyutonning inersiya haqida birinchi qonuni: «Jism tashqi kuch ta'sir qilmaguncha, to'g'ri chiziqli

bo'ylab tinch holatda yoki bir tekis harakatda bo'ladi».

Bu qonun Nyutondan olti asr muqaddam, buyuk hakim Abu Ali ibn Sinoning «Al ishorot vat-tanbihot» asarida yozib ketilgan edi: «*Sen bilasanki, jismga tashqi ta'sir bo'lmasa, uning ma'lum bir joyda va ma'lum bir shaklda bo'lishdan boshqa iloji yo'q, chunki uning tabiati shuni talab qiladi.*»



Nyutonning ikkinchi qonuni kuch va tezlanish orasidagi mutanosiblikni belgilaydi: «*Jismning tezlanishi unga qo'llanilgan kuchga mutanosibdir.*»

Bu aslida buyuk olim, Xorazmshohlar saltanatida faoliyat ko'rsatgan mutafakkir Faxriddin Roziyning (1148–1210) «Al-Mabohis al-Mashriqiya» kitobidagi fikrining takroridir: «*Agar ikki jism harakatni qabul qilishda farq qilsa, bu farq harakatning o'zidan emas, balki ta'sir qilayotgan kuchdagi farqdan kelib chiqadi: katta jismdagi kuch kichikroq jismdagi kuchdan kattaroqdir, chunki kichikroq*»

bo'lgan narsa kattarog'ida ham, faqat undan ko'proq miqdorda mavjud bo'ladi».

Nyutonning uchinchi qonuni jismlarning o'zaro ta'sirini ifodalaydi: «*Har bir harakat uchun teng va qarama-qarshi reaksiya mavjud.*»...

Faxriddin Roziyning yuqorida tilga olingan «Al-Mabohis al-Mashriqiya» kitobida shunga juda yaqin g'oya mavjud: «*Agar ikkita odam bir xil kuch bilan tortsa, halqa joyida tursa ham, u, albatta, har bir kuch ta'sirini his qiladi, ammo ularning ta'sirlari o'zaro muvozanatlashadi.*»



«NYUTONDA BOR ALAMIM MANIM...»

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV

mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV

Ilhom JUMANOV

Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Temir QURBONOV

Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari

bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r

23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

460010860262877031101179003

STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 209.

Bosilish — ofset usulida.

Bichimi — A3.

Hajmi — 6 bosma taboq.

47808 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda — 180.

Tashkilotlar uchun — 366.

Bosishga topshirish vaqti — 22.00.

Bosishga topshirildi — 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.